

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

Berdialiev Bahodir Nazarovich

**O'ZBEK XALQ RIVOYATLARINI NEMIS TILIGA TARJIMA
QILISHNING LINGVOSTILISTIK MUAMMOLARI**

5A120102 mutaxassisligi bo'yicha

MAGISTR akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Rahbar: dots. A.A. Yaxshiev

Samarqand – 2015

MUNDARIJA

Kirish	2
I BOB. O'zbek adabiyoti namunalarining nemis va o'zbek tarjimashunos olimlari tomonidan o'rganilishi	8
1.1. Germaniyada o'zbekshunos olimlar	8
a). Hermann Vamberi.....	9
b). Zigrid Klaynmihel.....	12
v). Barbara Haynkele.....	15
g). Ingeborg Baldauf va boshqalar.....	16
1.2. O'zbekistonda olmonshunos olimlar.....	23
II BOB. Rivoyatlar tarjimasida o'ziga xos stilistik jihatlarning berilishi....	34
2.1. Lingvostilistika va adabiyotshunoslik stilistikasi. Tahlil sathlari.....	34
2.2. Rivoyatlar tarjimasida tasviriy vositalarning berilishi.....	37
III BOB. Rivoyatlar tarjimasida lingvostilistik tahlillar	53
3.1. Frazelogik birliklar va aforizmlar tarjimasidagi uslubiy o'zgarishlarga doir.....	51
3.2. Tarjimada transformatsiyalarga doir.....	59
Xulosa.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar.....	68
Ilova. Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan nemis tiliga bevosita tarjimalar..	78

Kirish

Keyingi yillarda xalqimizning milliy-ma'naviy ko'zgusi bo'lgan boy adabiyotimiz namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzini, insoniy fazilatlarini va milliy qadriyatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Shu o'rinda prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch" asaridan iqtibos keltirmoqchimiz. "Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng etuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud" [Karimov 2008; 86].

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Tarjima tarixi ham adabiyot tarixi kabi ming yillik tarixga ega. O'zbek xalq rivoyatlarini nemischa tarjimalarini tadqiq etish ham o'zbek tarjimachiligi tarixining yaxshi yoritilmagan sahifalarini ilm ahliga ochib beradi.

Ildizi baquvvat xalq, millat o'lmaydi, adabiyot ravnaq topib boraveradi. O'zbek xalq rivoyatlarini nemischa tarjimalarini tadbqiq etish o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rnini ko'rsatishda muhim o'rin tutadi.

Hech bir milliy adabiyot faqat o'z doirasidagina – boshqa xalqlar adabiyotlaridan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Milliy adabiyotlararo ta'sir, o'zaro aloqa, bir-birini boyitish bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi tilga o'girish natijasida amalga oshadi.

Jahon adabiyoti rivojida t a r j i m a salmoqli o'rin tutadi. Tarjima nafaqat adabiyotlar o'rtasidagi aloqa vazifasini bajaradi, balki, o'zga xalqlar madaniyatiga bo'lgan mehr-muhabbat va hurmatni tarbiyalashga ham katta hissa qo'shadi, dunyo xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga, yagona jahon madaniyatini yaratish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida Al-Xorazmiy (VIII asrning II yarmi), Forobiy (873-950), Ibn Sino (980-1037), Beruniy (973-1048), Ulug'bek (1349-1394) singari o'zbek zaminida etishib chiqqan buyuk olimlar jahon ilmu fani rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Shu bilan birga, o'zbek shoir va yozuvchilarining durdona asarlari ham jahon umummadaniyati maydonida o'z mavqe'iga ega. Buyuk o'zbek allomalari va xalq qaxramonlari hayoti va muqaddas qadamjolar haqidagi rivoyatlar esa o'zbek milliy so'z san'atining alohida sahifalarini tashkil etadi. Keyingi paytlarda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tarjima san'ati rivojlanishi natijasida dunyo xalqlari o'zbek xalq og'zaki ijodining sara namunalarini o'z ona tillarida o'qiy boshladilar. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari nemiszabon o'lkalarga ham kirib bordi.

O'zbek xalq og'zaki ijodidan nemischaga tarjimalar uzoq tarixga ega. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, rivoyatlar nemis tiliga dastlab aslyatdan emas, balki, boshqa Evropa tillariga qilingan tarjimalardan amalga oshirilgan edi. Aytaylik, bir paytlar ruscha tarjimalar bevosita vositachilik vazifasini bajargan bo'lsa, keyinchalik ular asl nusxadan taglama tarjima qilish orqali nemischalashtirila boshladiki, bu o'zbek turmush tarzini, sharqona urf-odatlarini o'zga yurt kitobxonlariga etkazishda jiddiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Dissertatsiya ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot ishimizning obyekti sifatida o'zbek-nemis tarjimoshunosligining tarixi va uning yangi qirralarini, Germaniyada o'zbekshunos olimlar faoliyatini, o'zbek xalq rivoyatlarining nemis tiliga tarjimalarini oldik. Shuningdek, Oybek Ostanov tomonidan to'plangan va nemis tiliga tarjima qilingan rivoyatlar, afsonalar, hikoyalar va latifalar to'plami - "Geschichten entlang der Seidenstraße – Weisheiten des Orients" nomli kitobdan Ma'mun ibn Muhammad, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshbandiy, Mahmud G'aznaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalar haqidagi rivoyatlarni, shuningdek, Shuxratxon Imyaminova tomonidan nemis tiliga o'girilgan Alisher Navoiy hayoti haqidagi hikoyatlarni (aslyat matni bilan parallel berilgan) va ayrim shaxsiy tarjimalari

ishning obyektidir. Shaxsiy tarjimalar Hazrat Mir Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar bo'lib, "El desa Navoiyni" kitobidan olingan. Tarjimalarning o'zbek-nemis madaniy aloqalari ravnaqiga qo'shgan hissasini ko'rsatish va ularning nemischa tarjimalarini lingvostilistik tahlil qilish, shuningdek tarjimonlar mahoratiga baho berish tadqiqotning predmetidir.

Rivoyatlar tarjimalarini lingvostilistik tahlili jarayonida tarjimaga va uning tahliliga munosabat bildirilayotganda "asliyat" tushunchasiga nisbiy yondashish lozim. Chunki rivoyatlar xalq og'zaki ijodidir. Ularning bir nechta "asliyat" varianti bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. Ilmiy tadqiqot maqsadi bo'lib o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan rivoyatlarning nemis tiliga tarjima qilish orqali ularni jahon hamjamiyatiga yaxshiroq tanitish va tarjima ishlaridagi lingvostilistik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy izlanishdir.

Ilm-fani taraqqiyotiga Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Zamaxshariy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz ulkan hissa qo'shganlar. Ularning hayot va ijod faoliyatlari haqida xalqimiz orasida ko'plab rivoyatlar yaralgan. Bu rivoyatlar yillar davomida xalqimiz orasida og'izdan og'izga o'tib saqlanib kelgan. Keyinchalik ular milliy madaniy meros sifatida nashr etila boshlandi.

Dissertatsiyamizda quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik. Birinchidan, O'zbek tarjimachiligining ibtidosini belgilash va mumtoz adabiyotining nodir durdonalari, o'zbek xalq rivoyatlarini nemis kitobxoni, o'quvchilari nechog'lik xazm qilayotganliklarini yoritish, shuningdek, tarjima jarayonida tarjimon tomonidan yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklar, nuqsonlarni va yutuqlarni ko'rsatish. Zero, o'zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topishida buyuk allomalarning ijodiy ishlari bilan bir qatorda, ular haqidagi rivoyatlar va boshqa xalq og'zaki ijodi namunalarining ham o'z o'rni bor.

Ikkinchidan, o'zbek tarjimachiligining qanday asoslarga ega ekanligini, ildizi va tarjima tarixining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan sahifasini ko'rsatish.

Uchinchidan, o'zbek xalq rivoyatlarini jahonning boshqa tillariga tarjima qilishga oid masalalar va ularni tarjima qilish jarayonidagi lingvostilistik tahlillar. Shu orqali o'zbek tarjimachiligi tarixini xiralashib qolgan sahifalarini jahon hamjamiyatiga, qolaversa, hozirgi avlodga, mustaqillik farzandlariga etkazishdir.

Muammoning ilmiy yangiligi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda amalga oshiralayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarjima tushunchasiga lingvistik nuqtai nazaridan qaralganda, uni bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo'yilgan ijodiy jarayondir. Shuningdek, rivoyatlarning nemischa tarjimalarini lingvostilistik tahlil etish orqali o'zbek adabiyotining xalqaro aloqalarini belgilashda, ularning o'rni va rolini ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kungacha o'zbek adabiyotidan ko'plab asarlar nemis tiliga o'girilgan va ular ustida dissertatsiyalar yozilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin aynan rivoyatlarning nemischa tarjimalarinitadqiq etish va ularning tarjima san'ti tarixidagi o'rni va rolini ochib berish, hamda ularni lingvostilistik jihatdan tahlil qilish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida nemis o'zbekshunos va o'zbek olmonshunos olimlarining ilmiy faoliyati, ularning o'zaro adabiy aloqalarni o'rnatish borasidagi xizmatlari, xususan, o'zbek xalq rivoyatlarini xorijiy tillarga tarjimalarining o'rni va rolini o'rganishda mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yondashdik. Bunda birinchi galda yurtboshimiz I. Karimov asarlaridagi tarixiy o'tmishga hurmat, madaniy merosimizni o'rganish, uni dunyoga tanitish va yoshlar ongiga singdirish, haqidagi fikrlari asos qilib olingan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Dissertatsiya mavzusiga doir masalalar bir qator olmon o'zbekshunos olimlari, jumladan, Hermann Vamberi (asosan Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Alisher Navoiyning bir qancha asarlarini

o'rgangan), Zigrid Klaynmihel (Sigrid Kleinmichel) (asosan turkiy tillarni va Alisher Navoiy ijodini o'rgangan), Barbara Kellner- Haynkele (asosan musulmon davlatlaridagi siyosiy adabiyotlar va Alisher Navoiy ijodiga qiziqqan), Ingeborg Baldauf (asosan Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she'rlarini tarjima qilmoqda va Gumbold universitetida o'zbek tili va adabiyotini o'rganishga katta hissa qo'shmoqda) va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida va tarjimalarida o'rganilgan. O'zbekistonlik olmonshunos va tarjimashunos olimlardan esa, R. Abdullaeva, G'. Salomov, M. Jo'raev, K. Imomov, S. Karimov, Y. Nurmurodov, Sh. Sirojiddinov va boshqalarning ilmiy maqolalari, nomzodlik dissertatsiyalari, hamda ilmiy adabiyotlaridan unumli foydalandik.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyamizda tarixiy-statistik va tarjima-tahlil metodlarga asoslandik. Ishning birinchi faslida Germaniyada va O'zbekistonda olmonshunos-o'zbekshunos olimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritishda asosan tarixiy-statistik metodga, ishning keyingi qismlarida esa o'zbek xalq rivoyatlarining nemis tiliga bevosita tarjimalarini tahlil qilishda semantik-stilistik, tarjima-tahlil va qiyosiy-tahlil metodlariga tayandik.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot ishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dissertatsiya materiallaridan tarjima nazariyasi va amaliyoti, uslubshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni hamda, magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlarini yozishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga dissertatsiyani yozish jarayonida to'plangan ma'lumotlardan badiiy asar tili, badiiy tarjima, yozma tarjima fanlari bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xozirgi kungacha o'zbek tarjimashunoslik san'ati ko'plab yutuqlarga erishdi. Bir qator tarjima maktablari tashkil etildi. Xususan, chet el adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, magistrlik va doktorlik

dissertatsiyalari himoya qilingan va ko'plab ilmiy maqolalar yozilgan. Ammo, o'zbek adabiyoti namunalarining xorijiy tillarga tarjimalari ustida, ayniqsa, o'zbek tilidan nemis tiliga bevosita tarjimalar ustida mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish ancha sust. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tarjimonlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri milliy ma'naviy qadriyatlarimizni, boshqacha aytganda, bir necha ming yillik milliy-ma'naviy merosimizni jahon hamjamiyati oldida targ'ib qilishdir. Shunday ekan, biz boy ma'naviy merosimizni o'zida aks ettirgan rivoyatlarning xorijiy tillarga, xususan, nemis tiliga tarjimalari ustida ilmiy izlanish olib bordik.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, ishning mohiyatini aks ettiruvchi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida tadqiqotga umumiy tavsif berilib, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, metodologik asoslari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan.

Ishning birinchi bobi "O'zbek adabiyoti namunalarining nemis va o'zbek tarjimashunos olimlari tomonidan o'rganilishi", deb nomlanib, ikki paragrafni o'z ichiga oladi. Bu bobda Germaniyada o'zbekshunos va O'zbekistonda olmonshunos hamda, tarjimashunos olimlarining o'zbek adabiyoti namunalari, ayniqsa xalq og'zaki ijodiga oid ilmiy izlanishlari va faoliyati o'rganilib chiqildi.

Ishning ikkinchi bobi "Rivoyatlar tarjimasida o'ziga xos stilistik jihatlarning berilishi", deb nomlanib, ikki paragrafni qamrab olgan. Bu bobda lingvostilistika, adabiyotshunoslik stilistikasi va stilistik tahlil sathlariga alohida to'xtalib o'tilgan, jumladan o'zbek xalq rivoyatlarini nemis tiliga tarjima qilishning lingvostilistik muammolari nazariy jihatdan o'rganildi. Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Rivoyatlar tarjimasida lingvostilistik tahlillar O. Ostonsov tarjimalari misolida)", deb ataladi. Bu bobda o'zbek xalq rivoyatlarining nemis tiliga bevosita tarjimalari tahlil qilindi.

I BOB. O'zbek adabiyoti namunalarining nemis va o'zbek tarjimashunos olimlari tomonidan o'rganilishi

1.1. Germaniyada o'zbekshunos olimlar

Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birini boyitadilar. Hozirgi kunda tarjima san'ati barcha milliy madaniyatlarni bog'lovchi vosita sifatida o'zining sharaflı burchini bajarmoqda. Uning yordamida turli til, millat va elat vakillari boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishimiz o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini nemis tiliga tarjima qilishning lingvostilistik masalalarini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, o'zbek adabiyoti namunalarining nemis va o'zbek tarjimashunos olimlari tomonidan o'rganilish tarixiga to'xtalmoqchimiz.

Bugungi kungacha xorijiy adabiyotlar namunalaridan o'zbek tiliga tarjima qilish borasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Ammo, tarjima sohasining eng nozik, shu bilan birga, dolzarb masalalaridan biri bo'lgan o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga o'girish masalasida bunday deb bo'lmaydi. O'zbek adabiyoti namunalarini, ayniqsa rivoyatlarini xorijiy tillarga aynan, nemis tiliga o'girish jarayoni birmuncha sustligi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilgan ayrim tarjimalar ustida esa tadqiqot ishlari olib borilmagan. Balki buning sababi chet tillarni o'qitishda (o'rganishda) asosiy e'tibor chet tilidan o'zbek tiliga o'girishga qaratilib, masalaning ikkinchi tomoni, balki yanada muhimroq tomoni, o'zbek tilidan chet tillarga (nemis tiliga) o'girishga jiddiy e'tibor qaratilmayotganligidir. To'g'ri bu borada ham xozirgacha ba'zi ishlar amalga oshirilgan va amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodi butun dunyo ahlining e'tiborini jalb etib kelgan va o'zbek folklorining nemis tilida qayta yaratilishida X.Vamberi, G. Yungbauer, I. Lannerova, I. Sirtautas, M. Shpadu, V. Flaysher, G. Keller, I. Baldauf, Z. Klaynmihel, K. Rayxl kabi olimlar katta hissa qo'shganlar. Ular o'zbek xalq og'zaki ijodi merosining qo'lyozma va bosma nusxalarini to'plab, ularni tarjima va tadqiq qilishgan. Germaniyada 1583 yili Yohan Vetsel Alisher

Navoiyning, “Shoh Sarandibning uch navqiron o’g’lonlarining qanday qilib ziyoratga borg’oni” nomli asarini italyan tilidan (janob Xristofor Armaniy forsiydan italyan tiliga o’g’irgan “Peregrinaggio ditre giovani figliuolidel Redi Serendippo per opera di M.Christoforo Armeno della Persiana nell’ Italiana lingua traportato”) nemis tiliga tarjimasini amalga oshirgan. Ushbu tarjima turkiy adabiyotdan nemis tiliga qilingan ilk tarjimalardan biri hisoblanadi. Bu asar ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda Sarandib shohi qanday qilib o’zining uch o’g’lonini oqil va dono qilib tarbiyalagani hikoya qilinadi. Bolalar voyaga etgach, shoh ularni hayot tajribasidan o’tkazish maqsadida sayohatga yuboradi. Ko’p sarguzashtlardan so’ng, ular Bahrom Go’rning ko’liga tushadilar. Kitobning ikkinchi qismi Bahrom Go’r va Dilorom haqida hikoya qiladi.

Demak, o’zbek-nemis adabiy aloqalari XVI asrdayoq boshlangan. XIX asrning boshlaridan esa yanada rivoj topdi va takomillashib boradi. Bu davrda o’zbek adabiyoti namunalari – tarixiy yodgorliklar “O’g’iznoma”, “Muhabbatnoma”, “Shajarai turk”, “Boburnoma” kabi yirik asarlar nemis tiliga o’girila boshlandi. Shu o’rinda biz yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ayrimlari to’g’risida batafsil to’xtalmoqchimiz.

Hermann Vamberi – venger tilshunosi, sharqshunos olimi, etnografi va sayyohi. U kambag’al venger-yahudiy oilasida tug’ildi. Yoshligidan sharq xalqlari madaniyati, urf-odati, tili va adabiyotiga bo’lgan muhabbati tufayli turk va Osiyo tillarini o’rgandi. Muhammad Solihning 76 bobdan iborat o’zbekcha qahramonlik eposi “Shayboniynoma” degan nomda 1855 yil Venada dostonning asl matnini va uning nemischa tarjimasini nashr ettirdi. Agar “Qutadg’u bilig” umumturkiy xalqlarning mushtarak adabiy obidasi bo’lsa, “Shayboniynoma” – bu o’zbek adabiyotining noyob namunasidir [http://www.worklib.ru/dic/vamberi-german], [Abdullaeva 2013; 94-107].

Bundan tashqari Hermann Vamberi o’zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari adabiyoti, madaniyati va tarixiga oid asarlar yozgan. Uning

asarlari avvalo ingliz, nemis, fransuz va asta-sekin Evropaning boshqa xalqlari tillariga tarjima qilindi.

Vamberi bir venger baroni tomonidan anchagina pul bilan ta'minlanadi va 1856 yil Konstantinopolga boradi. U erda 4 yil o'qituvchi bo'lib ishlaydi va turk tilini, Sharq xalqlarining urf-odatlarini yaxshi o'rganadi. 1858 yilda Hermann Vamberi nemischa-turkcha, 1860 yilda esa nemischa-chig'atoycha lug'atlarni nashr ettirdi. U Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" dostonini "Uyg'ur tili obidalari va Qutadg'u bilig" nomi bilan nemis tilida qayta yaratdi. 1861 yilda Vamberi Vengriya fanlar akademiyasining topshirig'iga binoan Tehronga keldi. Chunki u 20 dan ortiq Evropa va sharq tillarini bilardi. Vamberi balki shuning uchun ham sharq mamlakatlariga sayohat qilish imkoniga ega bo'lgan. Jumladan, u Makkaga sayohat qiladi. Makkadan vataniga qaytayotganida hojilarga qo'shilib, darvesh niqobida Mazandoron orqali Balxash qo'ltig'igacha, Turkman cho'llari orqali Xivaga etib kelishga erishdi. Xiva va Qo'ng'irotda borib, so'ng u Qizilqum orqali Buxoro va Samarqandga sayohat qiladi. Qarshi, Maymanada bo'lgandan so'ng Hirot, Mashhad, Tehron va Trepezond (Turkiyadagi shahar) orqali Konstantinopolga qaytib kelgan. Vamberi sayyohati o'sha davrda shunchalik hayratomuz edi-ki, hatto Evropada ko'pchilik unga ishonmaganlar.

1865 yilda Vamberi Pesht universitetida Sharq tillari professori bo'lgan. U Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asr 60 yillaridagi geografik muhiti, tarixiy-ijtimoiy munosabatlari, turmushi va madaniy hayoti haqidagi chig'atoy-uyg'ur tillari, tatar-turk tillari va fin-ugor leksikografiyasiga doir asarlar yozdi.

Hermann Vamberi tarjima san'atiga katta hissa qo'shgan. Uning bu sohadagi asosiy ishlaridan biri shuki, u Muhammad Solihning "Shayboniynoma" – asarini nemis tilida qayta yaratdi.

"Shayboniynoma" dostoni Hermann Vamberini badiiy asar sifatida qiziqitirdi. U XV asr oxiri XVII asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasini, madaniyatini o'rganish uchun

“Shayboniynoma”ning ahamiyatini yuqori baholadi. Shuning uchun ham u bu asarni tarjima qilishga qaror qilgan.

Vamberining o’zi bu haqida shunday deydi: “Maqsadim nemis tiliga ag’daruvchi tarjimon bo’lish emas, men faqatgina Markaziy Osiyoning turkiy adabiyotidan hozirgacha notanish biror bir asarni tarixchilar, etnograflar, turkologlarga yordam berish uchun umumiy mazmunga yaqinroq qilib tarjima qilish edi”.

H. Vamberi tomonidan nemis tiliga o’girilgan “Shayboniynoma” nashrining tuzilishi quyidagicha: Mundarija – 4-bet; So’z boshi – 13-bet; Asl nusxa matni va nemischa tarjima – 14-445-betlar; Muloxazalar – 446-449 betlar [<http://dic.academic.ru/dic.nsf/brokg>].

Ushbu tarjima poetik tarjima emas. So’z va iboralarning mazmunini aniqroq berish maqsadida H. Vamberi badiiy tarjima emas, balki ko’proq taglama tarjima turiga murojaat qildi. Tarjima jarayonida u aniqlikka intilgan. Bu esa asarga tarixiy xronologik jihatdan yondashishga sabab bo’ldi. Chunki ibora va tasvirning poetik vositalari yoki badiiy obrazlar emas, balki har bir epizodning, voqeaning joy nomlarining, kishi ismlarining va boshqalarning taqdiri ko’proq qimmatga ega.

Hermann Vamberi o’zi bu haqida shunday deydi: “Ushbu tarjima haqida birinchi navbatda shuni aytish kerakki, o’zbekchadan nemischaga tarjima qilishda menga ikkala tilning qiyinchiliklariga bardosh berishga to’g’ri keldi. Menga, ya’ni nemis bo’lmagan poliglot yozuvchisiga bu dostonni tarjima qilish shunchalik qiyin bo’ldiki, agar bu ishda hurmatli do’stim, haqiqiy inson Ottokor Van Shlexta Vserdning yordami bo’lmaganida edi, mening harakatlarim behuda ketar edi” [Abdullaeva 2013; 94-107].

Demak, H. Vamberi tarjimasining ilmiy qimmatini yuqori baholab shuni aytib o’tish kerakki, bu asar o’z davrining adabiy va madaniy aloqlari uchun juda katta ahamiyatga ega.

H. Vamberining tarjima san'ati oldidagi asosiy xizmatlaridan yana biri shundaki, u Alisher Navoiy ijodini o'rgangan va uning asarlarini nemis tiliga tarjima qilgan olimlardan biridir.

Nemis tiliga birinchi marta tarjima qilingan doston "Yusuf bilan Ahmad" dostonidir. H. Vamberi bu dostonning Xorazm baxshilari tomonidan yozib olingan qulyozmalaridan birini 1862-1863 yillarda O'rta Osiyo bo'ylab qilgan sayohati paytida qo'lga kiritadi va uni o'zi bilan birga Vengriyaga olib ketadi. Qo'lyozmadan tanlab olingan parchalarni originalda va nemischa tarjimasi bilan o'zining dastlabki asari "Chig'atoy tili darsligi"ning xrestomatiya bo'limiga kiritadi. H. Vamberi O'rta Osiyoga qilgan sayohati davomida qaerga bormasin "Yusuf bilan Ahmad", "Tohir va Zuhro" dostonlarini juda ko'p eshitganligini, xalq baxshilari cho'ponlar, dehqonlar orasida katta xurmatga sazovor ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham u "Yusuf bilan Ahmad" dostoni qo'lyozmasi ustida uzoq yillar ish olib bordi. Bu ish 1911 yilgacha, ya'ni uning to'la ikki tilli yani, o'zbekcha va nemischa nashrini amalga oshirishga muyassar bo'ldi. Vamberining tinimsiz xizmatlari tufayli nihoyat, "Yusuf bilan Ahmad" dostonining nemischa nashri yuzaga keldi. Doston so'z boshisida tarjimon shunday deydi, "Bundan 44 yil oldin men "Chig'atoy tili darsligi" nomli kitobimda ushbu xalq eposidan namunalar tarjima qilib, nashr qildirgan edim. O'sha paytda menda juda ommalashgan bu poemani to'la tarjima qilish istagi tug'ilgan edi. Biroq zarur ishlar bilan band bo'lganligim uchun bu noyob asarni to'la nashr etish vaqti kelishini o'ylardim. Bugun, mening 79 yoshimda shunday kun kelganga o'hshaydi ... endi uni qattiqqo'l sharqshunos do'stlaringa xavola qilaman" [Vambery H. 1911;3].

Shunday qilib, Vamberining ilmiy faoliyatini o'rganar ekanmiz, uning o'zbek-nemis madaniy va adabiy aloqalarining boshlanishi va rivojlanishida, o'zbek adabiyoti yodgorliklarining nemis tiliga o'girilishida mashhur sharqshunos olimning xizmatlarini yuqori baholash mumkin.

Zigrid Klaynmihel – 1938yilda Zaarbryukkenda tug'ilgan. Turkologiya fanlari doktori, Fraye universitetining Turkologiya instituti professori.

U Berlindagi Humboldt va Fraye universitetlarida o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan. 1956-1961 yillarda Leningrad Sharqshunoslik institutining Turkologiya fakultetini tugatib, 1964-1967- yillarda Istanbulda Germaniya Demokratik Respublikasi Tashqi savdo palatasida turkiy tillar bo'yicha tarjimon sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik Qozog'istonda qozoq adabiyoti namunalarini tadqiq qilish bilan shug'ullangan. 1974-1991 yillarda- Germaniya Demokratik Respublikasi Fanlar Akademiyasining Adabiyot tarixi Markaziy institutining slavyanshunoslik bo'limi ilmiy xodimi, 1994 yildan Fraye universiteti Turkologiya institutida falsafa va ijtimoiy fanlar bo'limida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan Zigrid Klaynmihelning ilmiy faoliyati juda serqirra. U eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek tili va rus tilini qiyoslab ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning turkiy xalqlar adabiyotiga oid maqolalari asosan yigirmanchi asr adabiyoti muammolariga oid. Masalan, Muxtor Avezov, Abish Kekilboev, O'ljas Sulaymonov, Chingiz Aytmatov va boshqalar haqida ilmiy maqolalar yozgan.

Z. Klaynmihel 1970 yilda Berlinda XIV asrda yashagan Eron shoiri Sheyx o'g'lining „Marzubonnoma“ asarini tahlil qilib, „Marzubonnoma“ asarida fonologik, morfofonologik va morfologik muammolar“ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Quyida biz Klaynmihelning dissertatsiyamiz mavzusiga aloqador bo'lgan ishlarini sanab o'tishimiz mumkin:

- 1991- yilda Berlinda nashr etilgan “Turkiy tillik hududlar adabiyotlaridan namunalar (Literatur aus dem türkischen Sprachraum)” ;

- “Tan oling! Sharq shoirlari buyukroqdir”; Asarning epigrafi va kirish qismi „Zamonaviy turkiyzabon adabiyotlar, bu - bugungi kunning o'qish talabidir“ degan maqola bilan boshlanadi. Asarda Temir Po'latov, Pinar Kyur, Nadim Gyursel, Otajon Tagan, Zordun Sabir, Elchin, Vali Rizaev, O'ljas Sulaymonovlar haqida yozgan, und adiblarning suratlari ham berilgan;

- „1910-1934- yillar oralig'ida o'zbek dramaturgiyasi va prozasi“ (SHarqona yozish an'anasining rivojlanishi), monografiyasi Viysbaden shahrida

nashr etilgan. Ushbu asarida Klaynmihel Afandi latifalari, Hamza, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy va Abdurauf Fitrat hikoyalariga munosabat bildirgan;

- Nemis talabalari uchun “O'zbek tili darsligi (Leksika va Grammatika)”. 1995- yil Viysbadenda nashr etilgan;

- “XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi”. Bu asar O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasi va Humbold universiteti bilan hamkorlikda tayyorlangan. 1997- yil Berlinda nashr etilgan. Bu kitobda Abdulla Oripov va Erkin Vohidov ijodidan nemis tiliga o'girilgan namunalar, hamda, Z. Klaynmihelning „Cho'lponning Kleopatrasini va zanjirband ayollar” va professor I. Baldaufning „Cho'lpon va Tavfiq Fitrat” nomli maqolalari chop etilgan;

- “Xorazmda xalpa, Farg'ona vodiysida otin”. Asar 2000- yil Berlinda nashr etilgan. Kitobda arabcha kitoblar o'qiydigan, qarashlari, bilim darajalari turlicha ayollar turmushi tasvirlangan. Maqsad va masala ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda yoritilgan;

- 2001- yil Berlinda Alisher Navoiy tavalludining 560, vafotining 500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Klaynmihel simpozium materiallarini to'plab B. K. Haynkele bilan birgalikda “Mir Alisher Navoiy” [Haynkele 2003] nomli kitob chiqarishdi, hammualliflikda so'zboshi yozishgan. Kitobga Navoiy davri Hirot arxitekturasini aks ettirgan rangli suratlar, minatyuralar ham ilova qilingan;

- “Muhammad payg'ambarning tug'ilishi”. Asar 2009- yil Viysbadenda nashr etilgan. Kitob “Mavlud-noma”, “Qissai Rabg'uziy”, “Rabg'uziy ko'ngilni tozalash”, “Rabg'uziy, Yazig'i o'g'li”, “Altiparmaqning samo safari”, “Muhammadiya”, “Hilvatiy”, “Xolis”, “Tinishliq o'g'li”, “Yahyo-Johannes”, “Sulaymon Jalabiy (Čelebe) va Hilvatiyning samo safari”, kabi fasllardan iborat [Abdullaeva 2013; 94-107].

Klaynmihel Alisher Navoiy haqida yana bir qancha tadqiqotlar ham olib borgan, jumladan, “Alisher Navoiy - kulgu haqida”, “Axmad Poshsho va

Alisher Navoiy”, “Navoiy – benavo” va boshqalar. “Navoiy-benavo” asari bo’yicha Turkiyada halqaro konferensiyada ma’ruza qilgan. Bu xususida yuzlab ilmiy maqolalari mavjud. Ilmiy ishlar ro’yxatidan adabiyot tarixi, folklor, tarjima va boshqa mavzulardan tashqari M. Avezov, Ch. Aytmatov, S. Ayniy, Lutfiy, H. Xorazmiy, Najotiy, Fuzuliy (uning „O’ynar” radifli g’azalini tahlil qilgan), shuningdek, M. Qo’shjonov, Sh. Turdiev, M. Ibrohimov kabi akademik va doktorlar faoliyati ham o’rin olgan. Klaynmihel o’zbek modern poeziyasiga ham befarq emas. U Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qo’qonda bo’lgan [<http://www.amazon.co.uk/Books-Sigrid-Kleinmichel>], [Abdullaeva 2013;94-107].

Barbara Kellner-Haynkele. Zigrid Klaynmihel bilan birga Germaniyada sharqshunoslik va turkiyshunoslik masalalari xususida ilmiy ishlar olib borgan professor Barbara Kellner-Haynkeleni alohida ta’kidlash mumkin. 1975-1979-yillarda- Turkologiya institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan. 1979-1982- yillar Bayrutda Nemis Kunchiqar mamlakatlari jamiyatining Sharqshunoslik institutida ilmiy referent. 1982-1990- yillar Mayn sohilidagi Frankfurt universitetida turkologiya va islomshunoslik bo’yicha professor. 1990-1991- yillar Fraye universiteti Turkologiya institutida professor.

Professor Barbara Kellner-Haynkelening ilmiy ishlari va tadqiqotlari Qrim tatarlari va no’g’aylar, shuningdek sahroi turk xalqlari madaniyati tarixi, Markaziy Osiyo va Old Sharq turkmanlari tarixi, Usmonli turk imperiyasi madaniyati tarixi, Sovet musulmon respublikalarida til siyosati tarixi va adabiyoti kabi yo’nalishlarga qaratilgan.

Barbara Kellner-Haynkele faoliyatidan bizning dissertatsiyamiz mavzusiga doir quyidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin:

- “Musulmon davlatlarida til siyosati”, 1975 yil Frayburgda nashr etilgan;
- “Turkologiya bo’yicha bibliografik qo’llanma”. (professor G. Hazay bilan hammualliflikda). 1986 yil Budapesht-Visbadenda nashr etilgan;

- “Ozarboyjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston sovet musulmonlari davlatlarida til siyosati”. (Yakob M. Landau bilan hammuallif) 2001 yil Londonda, 2004 yilda esa rus tilidagi varianti Moskvada nashr etilgan;

- “Turkiya. XVIII va XIX asr Usmonli turk imperiyasining sayohat hisobotlarida bosqinchilik hujumi haqida”, (Türkei. Streifzüge im osmanischen Reich nach Reiseberichten des 18. Und 19. Jahrhunderts). 1990 yil Frankfurtida nashr etilgan;

- “Mir Alisher Navoiy - kechmishga bir nazar”. (Katta maqola, „Husayn Boyqaro va Navoiy”; „Davarning mashhurligi”; „Siyosiy maydon” kabi uchta katta qismdan iborat), asari 2003- yil Vyursburgda nashr etilgan [<http://www.geschkult.fu-berlin.de/e/turkologie/institut>], [Abdullaeva 2013; 94-107].

Ingeborg Baldauf. 1956 yilda tug‘ilgan. U Gumbold Universitetining osiyo- va afrikashunoslik instituti Madaniy-, ijtimoiy va ta’lim fakulteti O‘rta Osiyo tillari va madaniyati sohasida faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda Germaniyada samarali faoliyat olib borayotgan turkiyshunos mutaxassislardan biridir.

1974-1980 yillarda Vena universitetida turkologiya, islomshunoslik va arabshunoslik bo‘yicha o‘qigan. 1977-1978 yillar davomida Afg‘onistonda, afg‘on o‘zbeklari halq qo‘shiqlarini yig‘ib, 1980 yilda dissertatsiya himoya qilgan. 1981-1984 yillarda esa Avstriya Fanlar Akademiyasida turkiy xalqlar topishmoqlari ustida bir qancha ilmiy ishlarni olib borgan. 1982-1984 yillarda Frayburg Universitetida turk tilidan ma‘ruzalar o‘qigan. 1984-1991 yillarda Bambergda Turk tili, madaniyati va tarixi kafedrasida assistenti sifatida faoliyat yuritgan. 1991-1992 yillarda AQSHning Indiana universiteti Rokfeller stipendiati.

Ingeborg Baldauf Behbudiyning „Oyna” jurnalini ingliz tiliga o‘giran. 1991-1993 yillarda „Sovet turklari va musulmon Rusiyasida yozuvning o‘zgarishi va yozuv islohoti (1850 - 1937), siyosiy-madaniy, tarixiy - g‘oyaviy

taraqqiyotning simptomi” mavzusida ikkinchi dissertatsiyasini himoya qilgan. 1993 yilda Z. Klaynmihel bilan olti oy Xorazmda bo’lgan. Xalpa, baxshi, yozuvchi-shoirilar bilan uchrashgan, Yu. Hamadoniy qabristoni va muqaddas joylarni ziyorat qilgan, qishloqlarda qadimgi qo’lyozmalarni yig’ib, fotokopiya qilgan. 1995 yilda Humboldt universitetida kafedra mudirasi, institut direktori lavozimida ishlaydi [Abdullaeva 2013; 94-107]

I. Baldaufning ilmiy-ijodiy faoliyati juda serqirra va mahsuldor. I. Baldauf zamonaviy o’zbek adabiyotidan Abdurauf Fitratning „Shaytonning tangriga isyoni” sahna asarini, U. Nazarovning „Chayon yili” romanini, Shukrulloning „Kafansiz ko’milganlar” xotira qissasini, shuningdek, E. Vohidov, A. Oripov, B. Ro’zimhammad she’rlarini mahorat bilan nemis tiliga tarjima qilgan.

Ayni kunlarda professoro’zbek xalq og’zaki ijodi, O’rta Osiyoda jadidchilik harakati, Eron madaniyati, Markaziy Osiyoni madaniy sovetlashtirish, o’zbek tili taraqqiyotida tatarchaning roli, Usmonli turk adabiyoti, Ma’rifatparvarlik davri o’zbek adabiyoti, qadimshunoslik, musulmonlar dunyosidagi islohotchilik va modernizm, Shimoliy Afg’onistonda ziyoratchilik, Tolibonlar davrida Afg’oniston o’zbeklari, qadimgi qo’lyozmalarning izohli lug’at-glossariysi kabi mavzularda ilmiy faoliyat olib bormoqda.

Uning ilmiy loyihalari: “Shimoliy Afg’oniston maqollari;” “O’rta Osiyo Islom Ma’rifatparvarligi va Maxmudxo’ja Behbudiy;” “O’zbek tili;” “Turkiy xalqlar topishmoqlari;” “XX asr boshlarida o’zbek adabiyoti” va boshqalar [Abdullaeva 2013; 94-107].

Ingeborg Baldaufning ilmiy ishlari:

- “Afg’oniston o’zbeklari xalq qo’shiqlariga doir materiallar” (Materialien zum Volkslied der Özbeken Afghanistans), 1989 yil Berlinda, “Andreans Gehling Verlag” nashriyotida bosmadan chiqarilgan.

- “Turkiy xalqlar adabiyotlarida turli janrlar va bir xil motivlar”, 1985 yil Nemis Kunchiqar mamlakatlari jurnalida;

- “Shimoliy Afg’onistondagi o’zbek ayollarining diniy amallari haqida”, 1989 yil Berlinda;
- “Haqiqat izlab...”, 1990 yil “Forschungsforum” jurnalinig 2-sonida Bambergda;
- “O’rta Osiyoda tatarizm”, 1993 yil Viysbadenda;
- “Shimoliy Afg’oniston o’zbeklari tili va undagi o’xshashlik (identichnost)”, Avstriya Fanlar Akademiyasining xalqaro simpozium materiallari. 2010 yil Gyottingenda;
- “O’zbek lirikasida ayollar va Sharq”, 2008 yil Berlinda;
- “An’ana, Inqilob, O’tish davri. Markaziy Osiyoni madaniy sovetlashtirish”, 2007 yil Berlinda;
- “O’rta Osiyo va Rossiya. 1860 yildan 1990 yilgacha madaniy uchrashuvlar”, 2006 yil Venada;
- “Tavfiq Fitrat va Cho’lpon. Guliston”, 2006 yil Berlinda;
- “XX asr o’zbek adabiyotiga chizgilar”, 2001 yil Toshkentda;
- “Markaziy Osiyo jadidlari va musulmonlar dunyosida modernizatsiya va islohot”, 2000 yil Islom dunyosi jurnalida;
- “Cho’lpon. Bolalarning yangi adabiyot leksikoni”, 1998 yil Myunhenda nashr etilgan [<https://www2.hu-berlin.de/zentralasien=anor>].

Ko’rib turganimizdek, professor Baldaufning ilmiy izlanishlari nafaqat O’zbekistonlik o’zbeklar, balki shimoliy Afg’oniston va Markaziy Osiyoning barcha millat va elatlarining adabiyoti, tili, tarixi va urf-odatlarini to’g’risidadir. U “Shimoliy Afg’onistonning o’zbek xalq qo’shiqlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Professor Ingeborg Baldauf boshchiligida Gumbold Universitetida Osiyo tillari va madaniyati mavzusida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarni olib bormoqda. Jumladan, “Shimoliy Afg’oniston maqollari” (Sprichwörter aus Nordafghanistan), “Mahmudxo’ja Behbudiy va O’rta Osiyoda Islom dini” (Mahmud Xudja Behbudi und die islamische Aufklärung in Mittelasien), “O’zbek tili” (Die uzbekische Sprache), “Turkiy xalqlarning xalq

topishmoqlari”, “XX asr boshida o’zbek adabiyoti” (Uzbekische Literatur des frühen 20. Jahrhunderts) va boshqa tadqiqot loyihalari mavjud.

Universitetda Ingeborg Baldauf xonim boshchiligida quyidagi yo’nalishlarda “Markaziy Osiyo seminari” (Zentralasien-Seminar) nomli seminar tashkil etilgan:

- Bakalavriyat, magistratura va doktorantura ta’limi (Bachelor, Master- und Promotionsstudien)
- Fors, mo’g’il, pushtu, tojik, tibit va o’zbek tillarida til o’rganish kurslari (Sprachkurse für Dari - Persisch, Mongolisch, Paschto, Tadschikisch, Tibetisch und Uzbekisch - teils auch als Intensivkurse)
- Ilmiy loyihalarda ishlash imkoniyati (Arbeitsmöglichkeit in wissenschaftlichen Projekten) va boshqalar.

Bundan tashqari Universitetda quyidagi yo’nalishlarda o’zbek tili va adabiyotini o’rganish imkoniyati mavjud:

- Bachelor "Regionalstudien Asien - Afrika" (Schwerpunkt Zentralasien)
- Masterstudiengang "Zentralasien-Studien - Central Asian Studies"
- Regionalwissenschaftliches Master-Studium "Mittelasien - Kaukasien"
- Promotion in "Zentralasien-Studien"

Quyidagi yo’nalishlarda esa “Zentralasien-Seminar” doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

- madaniyat tarixi va ijtimoiy siyosat mavzusida (über kulturgeschichtliche und gesellschaftspolitische Themen)
- til va adabiyot mavzusida (über Sprachen und Literaturen)
- etnografiya va diniy fanlar sohasida (über Themen aus Ethnologie und Religionswissenschaft)
- Markaziy Osiyoning yangi tarixi (über die neuere Geschichte Zentralasiens) va boshqalar.

Kichik nashrlardan iborat “Anor” seriyasi Markaziy Osiyoda islom dini, tarixi va madaniyatiga oid nemis tilidagi asosiy manbalardan biridir. Xozirga qadar “Anor” seriyasida 19 ta kitob nashr etilgan. [<https://www2.hu-berlin.de/zentralasien=anor>].

Brigitta Xoyer. Fraye universiteti Turkologiya institutining ilmiy xodimi. B. Xoyer O'zbekistonda O'tish davri va Mustaqillik yillarida o'zbek xotin-qizlarining ijtimoiy ahvoli masalalari bilan shug'ullanadi va shu yo'nalishda bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borgan [Abdullaeva 2013;94-107].

Dr. Yurgen Paul. Fraye universiteti Turkologiya institutida faoliyat olib boradi. Uning quyidagi ilmiy ishlari diqqatga sazovordir: “Temuriylarga oid manbalarda o'zbeklar ifodasi”, “Bahoviddin Naqshbandiy va Amir Temur”, “Temur bilan uchrashuv”, “Temur davri shayxlari”, “Chig'atoy xonligi davridagi hukmdorlar va shayxlar” va boshqalar. Yurgen Paul A.Temurning Bahoviddin Naqshbandiy, Sayid Baraka, Zangi ota (Baba), Boyazid, Abu Bakiriy Tayabadi, Ne'matilloh Vali, Yassaviy, Hamadoniy kabi shayx va avliyolar bilan bo'lgan uchrashuvlari haqida nemis olimlariga ma'lumot bergan [Abdullaeva 2013;94-107].

Klaus Shyoning (Claus Schöning) esa Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti ijodini chuqur o'rganmoqda. Uning quyidagi asarlariga e'tibor bering: “„Boburnoma”da Navoiy obrazi”, “„Boburnoma” betakror asar”, “„Boburnoma”ning Haydarobod variantida matn strukturasi va o'zgaruvchan fe'llar” va boshqalar. Klaus Shyoning, shuningdek, Turkiy tillar haqida bir qancha tadqiqotlar olib borgan [Abdullaeva 2013;94-107].

Peter Sime. Turon vohasi bo'yicha yirik mutaxassis Berlin Fanlar Akademiyasining manbashunos va matnshunos olimi Professor Peter Simening ilmiy ishlari xususida to'xtalmoqchimiz. Uning “Buyuk Ipak yo'llarida yo'qolib ketgan madaniyatlar”, “Turon matnlari”, kabi asarlari Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy madaniy boyliklarini va milliy urf odatlarini o'zida mujassam etgan. Peter Sime shuningdek, orientalistika va turkologiya

yo'nalishida yana ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirgan [<https://www2.hu-berlin.de/zentralasien=anor>].

Forsiyshunos olim **Luts Rjakning** ilmiy ishlari; “Marv darvozasi oldidagi ko'chmanchilarning oddiy bir kuni” (1994), “Tojik tili grammatikasi” (1999), “Afg'oniston provinsiyasidagi sarguzashtlar. Abduraxmon Pahvol xotiralari” (Luts Rjak uni fors tilidan tarjima qilgan. 2004), “O'zbekiston va Tojikistonga sayohat taassurotlari” (Fan, ta'lim va Mustaqillik) 1995, “Bolshevizm e'tiqod shakli sifatida - Sovet O'rta Osiyo ateizmi haqida qarashlar”(2002), “Tojik fenomeni” (2004), “Muqaddas avliyo (vali) lar, ularning Afg'onistondagi qabrlari haqidagi hikoyalarning bema'ni (yolg'on, xato) strukturasi”(2004), “Islom madaniyatlariga tashrif” (Afg'oniston misolida) 2012, “Buyuk Temur bugungi siyosatning etaloni” (1995/96) va boshqalar [Abdullaeva 2013; 94-107].

Yakob Taube. U ertak, afsona, rivoyatlar bo'yicha mutaxassis. Akademik Ergash Fozilovning shogirdi. 1980 yillarda Farg'ona vodiysida o'zbek xalq og'zaki ijodiga oid materiallar yiqqan. Ajina, dev, alvastilar haqida monografiyalari nashr etilgan. Nemis tilida o'zbek ertaklari to'plamini katta maqola bilan nashrdan chiqargan. Yakob Taube o'zbek modern poeziyasiga ham qiziqishi katta. Modernist shoir B.Ro'zimuhammad she'rlarini nemis tiliga tarjima qilgan va u haqda katta maqola yozgan.

Mark Kirhner. Navoiyshunos turkolog olim. U o'zining “Navoiyning „Layli va Majnuni” tadqiqoti” (2003) nomli ilmiy tadqiqotida dostonidagi 2059 dan 2110 gacha bo'lgan baytlarni nemis tilida sharhlagan. (1996 yilgi turkcha nashrga asoslangan) [<https://www2.hu-berlin.de/zentralasien=anor>].

G. Yungbauerning nemis – o'zbek adabiy aloqalarini rivojlantirishda alohida o'rni bor.

Uning turkiy xalqlar ertaklari asosida Evropada nashr etilgan dastlabki to'plamlardan biri “Turkiston va Tibet ertaklari” majmuasidir. Bu to'plam O'zbekiston kitob fondlarida bo'lmaganidan uning to'la mazmuni va strukturasi

xaqida ma'lumot berish qiyin [Nurmurodov Y. 1987], [Abdullaeva 2013;94-107].

Hammer Purgshtall. Taniqli sharqshunos, tarjimon sharq shoirlarini evropaliklarga, xususan, nemislarga tanishtirishda xizmati katta. Hammer Purgshtal fors-tojik shoirlarining asarlaridan parchalar tarjima qilib, "Fors suxondonlisi" nomli asarini chop ettirdi. Mir Alisher Navoiy haqida ham ilk bora nemis o'quvchisini tanishtirib, Mir Alisher Navoiyning to'liq tarjimai holini, asarlaridan tarjimalarni kiritgan. I.V. Gyote "G'arbu SHarq devoni"ni yaratishda Hammer Purgshtalning ushbu asaridan foydalangan va undan ilk bora Mir Alisher Navoiy haqida ma'lumot olgan.

XX asrning o'rtalariga kelib germanist olim doktor **Flaysher V.M.** Jirmunskiy va H.T. Zarifovlarning "O'zbek xalq qaxromonlik eposi" kitobini nashr ettirdi [O'zbek xalq ertaklari. 1955].

Doktor Flaysher "O'zbek xalq qaxromonlik eposi"ning montaj tarjimasini tayyorlar ekan, u kitobni puxta o'rganib, uning eng muhim, nazariy xulosalarga boy yoki katta axboriy xarakterga ega bo'lgan qismlarini tanlab oladi. "O'zbek xalq qaxromonlik eposi"ning eng katta va asosiy bobi "Epik repertuar" deb nomlanadi. Bu bobda atoqli olimlar qahramonlik dostonlari bo'lgan "Alpomish" va "Yodgor"ni, jangnomalardan "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek"ni, tarixiy va kitobiy dostonlarni, romantik epos hamda "Go'ro'g'li" turkumini batafsil tahlil qiladilar. Doktor Flaysher qariyb uch yuz sahifalik bu bobni xuddi kitobdagidek 6 qismga bo'lib, 23 sahifada bayon etgan. U kitobdagi eng asosiy nuqtalarga diqqatini qaratib juda to'g'ri yo'l tutgan. Bu bilan u o'z xalqining madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

XX-asr oxirlarida o'zbek xalq dostonlariga olmon tarjimonlari va tadqiqotchilarining qiziqishlari va e'tibori yanada ortdi. Taniqli nemis turkolog olimi, iqtidorli tarjimon professor **Karl Rayxl** ertaklar tarjimasini bilan shug'ullanibgina qolmay, balki o'zbek dostonlarini ham nemis tiliga o'girishga astoydil bel bog'ladi va natijada, 1985 yili Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi "Ravshan" dostonini bevosita o'zbek tilidan nemis tiliga tarjimasini amalga

oshirdi. 2001 yili “Alpomish” dostonining Saidmurod Panoh o’g’li varianti ham bevosita o’zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilindi. Mazkur ishga nafaqat tarjima, balki olimning uzoq yillar davomida doston ustida olib borgan tadqiqot ishi sifatida ham baho berish mumkin.

1953 yilda Sadriddin Ayniyning “Buxoro jallodlari” asari Laypsigda **H. Brushvidt** tarjimasi asosida nemis tilida nashr etilgan. Germaniyada o’zbek folkloriga qiziqish katta. 1959 yilda Berlindagi “Kultur und Fortschritt” nashriyoti **M. Shpadu** tarjimasi asosida “Ertaklar karvoni” nomli to’plam bosib chiqargan. To’plam 42 ta o’zbek xalq ertaklarini qamrab olgan. 1961 yilda usha nashriyotda Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asari 1962 yilda esa “Folk und Velt” nashriyotida “Sekretar Saida” nomi bilan **E. Brummer** tarjimasi asosida nashr etilgan. 1966 yili Xo’ja Nasriddin latifalarini o’z ichiga olgan “Kim taom hidini sotsa” to’plami nemis tilida nashr etilgan. Nemis tarjimoni **Arno Shpeht** (Arno Specht) Barno Oripovabilan hammualliflikda Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” asarini rus tilidan “Die Liebenden von Taschkent” nomi bilan nemis tiliga o’girdi [<http://www.amazon.de/Die-Liebenden-Taschkent-Barno-Aripova/dp/>], [Abdullaeva 2013; 94-107].

Demak, Germaniyada o’zbek adabiyotiga qiziqish uzoq yillardan beri mavjud. Bugungacha bir qancha qimmatli ishlar amalga oshirilgan va oshirilib kelinmoqda.

1.2. O’zbekistonda olmonshunos olimlar

O’zbek yozuvchisi Muhammad Ali O’zbekistonda tarjima san’atining xozirgi kundagi ijtimoiy vaziyati, muammolari to’g’risidagi fikrlariga ko’ra, O’zbekiston Yozuvchilar Uyushmasida xalqaro ijodiy aloqalarini yo’lga qo’yish va madaniyatlar ko’prigi bo’lgan badiiy tarjimani rivojlantirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirildi. Uning fikriga ko’ra, Tarjima jarayoni ikki qanotga ega. Bular jahon tillaridan o’zbek tiliga tarjima qilish va o’zbek tilidan jahon tillariga tarjimalarni ro’yobga chiqarishdir. “Ikkinchi qanot” bo’yicha o’tgan davr mobaynida o’quvchilarga jahon adabiyotidan turli namunalar taqdim etilib

kelinmoqda. Bu sohada “Jahon adabiyoti” jurnali faoliyati diqqatga sazovordir. O‘zbek adabiyotidan jahon tillariga qilinayotgan tarjimalar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, tarjimalar ham tasodifan ro‘y beradi. Bunday ahvolni o‘nglashimiz lozimligini ta’kidlaydi va rus tilshunosi P.M. Toperning bu borada quyidagi fikrlarini va faktlarni keltiradi, - “Sobiq ittifoq davrida shakllangan tarjima nazariyasi bugunga kelib Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining barchasida ham tanazzulga yuz tutdi”. Oxirgi o‘n besh yil ichida olimlarimiz tarafidan bu sohada jahon ilmi talabiga javob bera oladigan yirik tadqiqotlar yaratilmadi hisob. Hatto Xalqaro tarjimonlar federatsiyasining 1993 (Moskva), 1996 (Melburn), 1998 (London) yillardagi va keyingi ilmiy anjumanlarida ham ishtirok etilmadi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, so‘ngi yillarda tarjimashunoslik ilmi tarjima amaliyotiga qaraganda birmuncha orqada qolmoqda [“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2010 yil 2-soni].

Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda, O‘zbekistonda olmonshunos olimlar to‘g‘risida, nemis tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjimalar xususida batafsil to‘xtalmoqchimiz.

Bu sohaning taniqli vakillari sifatida Xurram Raximov, Yo‘ldosh Parda, Poshali Usmon, Yanglish Egamova, R. Abdullaeva, Sadridin Salim, Safo Ochil, Shuhratxon Imyaminova, Mirzaali Akbarov va Oybek Ostons va boshqalarning nomlarini keltirishimiz mumkin. Yaqin yillargacha nemis adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima qilishga qaraganda o‘zbek adabiyotidan nemis tiliga bevosita tarjima qilish jarayoni ancha sust edi. Faqatgina sanoqli tarjimonlar bu ishga qo‘l o‘rishgan, misol tariqasida, bu boradagi ilk ishlarni amalga oshirgan Otaboy Jumaniyozov va Xurram Raximovlarning nomlarini aytishimiz mumkin.

Filologiya fanlari nomzodi Xurram Rahimov tomonidan nemis tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjimalar sifatida quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- “Etti oqqush. Olmon xalq ertaklari”. (Die sieben Schwäne. Deutsche Volksmärchen), 80dan ortiq ertaklar tarjimalarini o‘z ichiga olgan;

- “Asalarilar qirolicasi. Aka-uka Grimmlar ertaklari”. (Die Bienenkönigin. Märchen der Brüder Grimm), 33 ta ertaklar tarjimalarini o’z ichiga olgan;

- “Berma xalal orzularimga”. (Lasst mir meine Träume. Deutsch-usbekische Gedichtanthologie.), 60 ta sherlar tarjimasini o’z ichiga olgan.

Shuningdek, X. Rahimov o’zbek adabiyoti namunalarini nemis tiliga o’girish borasida ham katta yutuqlarga erishgan. Uning bu boradagi ishlaridan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- “Usbekische Volksmärchen”. (O’zbek xalq ertaklari);

- “Märchen aus Samarkand”. Feldforschung an der Seidenstraße in Zentralasien. Aus der mündlichen Überlieferung in Usbekistan. Aufgezeichnet und kommentiert von Gabriele Keller. (Samarqand ertaklari) to’plami 18 ta tarjimini o’z ichiga oladi.

Bundan tashqari X. Rahimov muallifligi ostida nashr etilgan lingvistika sohasining turli mavzulariga oid ikki yuzdan ortiq ilmiy maqolalar, kitoblar, majmualar, lug’atlar, darsliklar va boshqalarni sanab o’tish mumkin.

Xozirgi kunda O’zbekistonda eng faol olmonshunos olimlardan biri Roviyajon Abdullaevadir. U Gyote va Shiller ijodini mukammal o’rganmoqda va ulardan tarjimalar qilmoqda. Uning “Adabiy aloqalar tipologiyasi” (Germaniya turkiyshunosligi misolida) nomli maqolasida Germaniyada o’zbek tili va adabiyotini, o’zbek madaniyatini, yozuvchi va shoirlarning ijodini o’rganayotgan olimlar to’g’risida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Filologiya fanlari nomzodi, mohir tarjimon Yanglish Egamova 1943 yilda Jizzax viloyatining Forish tumanida tug’ilgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti chet tillar fakultetini tamomlagan. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari”, “Hamroz dillar”, Bruno Apitsning “Qashqirlar changalida” romanlarini, Frits Vyurtlening “Andijon shahzodasi” (“Bobur – yo’lbars”) qissasini, Volfgang Borxert hikoyalarini, Y.P. Ekkermannning “Gyote bilan gurunglar” asarini, M. Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” adabiy

tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Saksonga yaqin ilmiy maqolalar muallifi.

Shu o'rinda, Yanglish Egamovanning badiiy tarjima to'g'risida quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz, "Badiiy tarjima – yuksak san'at. Tarjimon esa, xuddi yozuvchi singari san'atkor. U boshqa tilda bitilgan badiiy asarni shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'z ona tilida qayta yaratadi. Ular o'rtasidagi farq shundaki, yozuvchida erkinlik katta: u istagan mavzuda, istagan uslubda, istagan so'z va boralarini qo'llabyozaveradi. Biroq tarjimon imkoniyatlari cheklangan, u tarjima qilayotgan asar mavzusi, g'oyasi, muallif maqsadi, uslubi, til xususiyatlaridan chetga chiqolmaydi, shu imkoniyatlar doirasida o'z tili qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda asarni qaytadan o'z tilida yozib chiqadi. Bu jarayon "qaytadan yozib chiqadi" deb aytishgagina oson. Avvalo, badiiy tarjimada ikki tilni, ayniqsa ona tilini mukammal bilish talab qilinadi. Biroq til bilishning o'zi kamlik qiladi. Tarjimon badiiylilikni his etishi kerak. O'zi tarjima qilayotgan asarga xos bo'lgan badiiy-tasviriy vositalarni, uning uslubiy qirralarini, badiiy bo'yoqlarni ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda tarjima o'quvchisiga etkaza olishi, bir so'z bilan aytganda, badiiy asar yaratishi lozim. Tarjimon shu asarni yozishda o'z muallifi qanday holatga tushgan bo'lsa, xuddi o'sha holatga tushishi kerak" ["Yoshlik" jurnali 2013 yil 12-son; 9-14]

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, shuni qo'shimcha qilmoqchimizki, har qanday tarjimon o'zi shug'ullanayotgan tillarni mukammal bilishi va badiiylilikni his eta olishidan tashqari, usha xalq madaniyati, urf-odatlar va tarixini ham bilishi kerak deb o'ylaymiz. Fikrimizning dalili sifatida yosh tarjimon O. Ostonov faoliyatini misol keltirmoqchimiz. U yozuvchi ham, nemis tili mutaxassisi ham emas. Ammo o'zbek adabiyotidan nemis tiliga bevosita tarjimalarni amalga oshirayotgan bugungi kundagi eng faol tarjimondir. O. Ostonov nemis tilini mustaqil o'rgandi va bir necha yil Germaniyada yashab nemis tilini mukammal o'rgandi.

O. Ostonov G'ofur G'ulomning "Shum Bola" (der Schelm), O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" (Kein Himmel auf Erden) asarlarini, Abdulla Qodiriyning "Anor" (der Granatapfel) hikoyalar to'plamini, shuningdek, yillar davomida eshitgan va turli adabiyotlarda o'qigan sharq xalqlari ijodiga oid rivoyatlarni to'plab ularni bevosita nemis tiliga o'giradi. Bu kitob 130 ga yaqin Sharq hikoyalari, o'gitlari, afsona va rivoyatlaridan tashkil topgan bo'lib, "Geschichten entlang der Seidenstrasse - Weisheiten des Orients" (Buyuk ipak yo'li rivoyatlari – Sharq donishmandliklari) deb nomlanadi.

U 2014 yilning noyabr-dekabr oylarida Germaniyaning bir qator shaharlarida o'zining bevosita tarjimalarining taqdimot marosimlarini o'tkazdi.

Yana bir tajribali olmonshunos tarjimon Shuxratxon Imyaminova tomonidan nemis tiliga o'girilgan Alisher Navoiy hayoti haqidagi hikoyatlar (asliyat matni bilan parallel berilgan) va o'zbek xalq ertaklaridan "So'sambil", "Semurg'", ertaklari tarjimalari, shuningdek, O'zbekiston Milliy Universiteti talabalari tomonidan tarjima qilingan "Tegirmonchi" (Der Müller), "Hunarli ming yil yashaydi" (Der Mann, der viele Handwerke hat, lebt tausend Jahre), "Podsho va uning farzandlari" (Podschoh und seine Kinder), "Do'stlik haqida" (Über die Freundschaft), "Yarimta non" (Eine halber Leib Brot) nomli ertaklar va Mavluda qosimova tomonidan tarjima qilingan O'tkir Hoshimovning "Urushning so'ngi qurboni" (Das letzte Kriegsopfer) qissalaridan iborat to'plam nashr etildi [Alisher Navoiy hikoyatlari 2013].

Bu to'plamga alohida to'xtalishimizga sabab, unda aynan bizning mavzumiz obyekti bo'lgan rivotlar va boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita tarjima qilingan. To'plamdagi tarjimalar o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklarga ega. Ularga ishimizning keyingi fasllarida tarjimalarning lingvostilistik tahlillari jarayonida batafsil to'xtalamiz.

Keyingi paytlarda Respublikmiz bo'ylab turli ta'lim maskanlarida yosh tarjimonlarning xalqaro va mahalliy konferensiyalari, seminar-treninglari tashkil etilmoqda. Toshkentdagi Gyote institutida "Tarjimonlar harakatda" loyihasi

doirasida nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi yosh tarjimonlarning hududiy seminarlari tashkil etilmoqda.

Mustaqillik davrida mamlakatimizning xalqaro aloqalari jug'rofiyasi yanada kengaydi, adabiyotimiz ham istiqbol va istiqbol yo'liga kirdi. Tarjimon va tarjimashunoslarimizning imkoniyat darajalari yanada kengaydi. Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Jahon adabiyoti" jurnali dunyo adabiyotidagi nomdor adiblarning eng sara asarlari tarjimalarini chop etib kelmoqda.

Ayni paytda Jahon tillari universiteti, Toshkent Sharqshunoslik instituti, Andijon tillar instituti, Samarqand chet tillar instituti va O'zbekiston Milliy universitetlaridan yosh tarjimonlar va tarjimashunoslar yetishib chiqmoqda. Shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Yosh tarjimonlar" ijodiy to'garagining ham faoliyatini alohida ta'kidlash lozim.

Shu o'rinda Samarqand davlat chet tillar institutida rektor Sh. Sirojiddinov tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yosh tarjimonlar maktabi"ning tashkilganligi diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida boshqa tillar kabi nemis tilini o'rganish ham o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega. Masalan, Samarqand davlat o'niversitetining chet tillar fakulteti bo'lgan ta'lim maskani 1994 yilda Samarqand davlat chet tillar institutiga aylantirildi. Institutda nemis tilining o'ziga xos etuk mutaxassislari faoliyat ko'rsatishgan. Ular jumlasiga R.I.Mogilevskiy, A.V.Azatyan, G.A.Rish, G.A.Poddubnaya, Z.F.Shishkina, D.E. Gauss, A.N. Nurmuxamedov, M.M. Nusharov, X.S. Samatov, B.T. Tursunov, M.Sh. Mamatov, X.S. Ibragimova, A.B. Sobirova, K.N. Namozov, G.I. Irgashev, B.X. Rizaev, X.M. Mirsaidova, K.L. Turniyozova, A.M. Bushuy, R.M. Allaeva, R.T. Toshniyozov, M.B. Begmatov, A.A. Yaxshievlarni kiritish mumkin. Ularning har biri kafedraning va nemis filologiyasi yo'nalishining ravnaqi uchun munosib hissa qo'shgan.

Institutning ilk olmonshunoslaridan biri sifatida M.M.Nusharov 1968 yilda sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining Leningrad

(hozirgi Sankt-Peterburg) bo'limida «Hozirgi nemis va o'zbek tillarida ramkali konstruksiya» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1991 yilda sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining Moskva bo'limida «Hozirgi zamon nemis tilida sodda gap tarkibining kengayish prinsiplari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. M.M.Nusharov yosh tadkikotchilarning Moskva, Sankt-Peterburg singari markaziy shaharlarda ta'lim olib, filologiya fanlari nomzodi va doktori ilmiy darajasiga erishadi. U 40 yil mobaynida ilmiy-pedagogik va tashkilotchilik faoliyatini birgalikda olib bordi. M.M.Nusharov o'z faoliyati davomida bir necha monografiya, 100 dan ziyod ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar chop etdi, qator ilmiy anjumanlarni tashkil etish va o'tkazishga tashabbus ko'rsatdi.

Institut o'qituvchisi professor Berdikul Tursunov 1975 yilda sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasi Leningrad bo'limining Tilshunoslik institutida «Парцеллированные придаточные предложения в немецком и узбекском языках» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

B. Tursunov ilmiy izlanishlarini davom ettirib, 1993 yilda Sankt-Peterburg universitetida «Присоединение-как особый тип синтаксической связи» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

B. Tursunovning pedagogik-ilmiy faoliyati ko'p qirralidir. Uning 100 dan ortiq ilmiy, ilmiy-metodik ishlari chop etilgan. Shulardan 12 tasi o'quv, ilmiy-metodik va metodik qo'llanmalar bo'lib, ularning barchasi o'quv jarayoniga tadbqiqilingan.

Institut dotsentlari G.S.Ibragimova, G'.I.Irgashev, K.A.Turniyazovalar filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldilar, ko'plab ilmiy maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'quv qo'llanma va darsliklar chop ettirishdi.

1994 yil Samarqand davlat chet tillar instituti tashkil etilgandan boshlab, roman-german filologiyasi fakulteti tarkibida yuqori va quyi kurslarda nemis tili fani bilan shug'ullanuvchi ikkita kafedra faoliyat ko'rsatadi. 2014 yilga kelib ular yana "Nemis filologiyasi" nomi bilan birlashtirildi. Kafedra ilmiy faoliyati bo'yicha nafaqat institutda, balki Respublika miqyosida ham etakchi o'rinda

turadi. Ayni kunlarda kafedrada 2 ta fan doktori, professor, 8 ta fan nomzodi, dotsent, 2 ta katta o'qituvchi va 20 dan ortiq o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Shu institutda faoliyat olib borayotgan A.M. Bushuy, B.H. Rizaev kabi olimlarni butun Respublika taniydi.

Nemis filologiyasi kafedrası va Samarqand davlat chet tillar instituti tarixida professor Muhammadjon Shermuhammedovich Mamatovning alohida o'rni bor. M.Sh.Mamatov Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti Leningrad bo'limida "Nemis va o'zbek tillarida ikkilamchi predikatsiya" mavzusida dastlab nomzodlik, keyinchalik "Hozirgi o'zbek tilida ikkilamchi predikatsiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan.

Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetida tahsil olgan yirik tilshunos olim Anatoliy Mixaylovich Bushuy 1973 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Keyinchalik Sankt-Peterburg universitetida "Лексикографическая и библиографическая репрезентация фразеологии" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Anatoliy Mixaylovich Bushuy folklorshunoslik sohasida ertaklar tili, iboralar va paremiyalar nazariyasining tadqiqi bilan shug'ullanib, turli xaqlarning paremiyalar hosil bo'lish manbalarini tizimli ravishda o'rgandi. A.M. Bushuy 600 dan ziyod ilmiy maqola va monografiyalar muallifidir. Uning monografiyalari: "Язык и общество", "Язык и действительность", "Иностранные языки в современном мире", "Лексикографическое описание фразеологии", "Основы теории фразеологии", "Основы фразеологического словаря", "Лингвостилистическая интерпретация текста (романские и германские языки)" kabilar, o'quv qo'llanmalari– "Лингвистический анализ слова и предложения", "Интерпретация учебных текстов", "Краткая история развития методики обучения иностранным языкам", "Коммуникативная методика обучения и зарубежный педагогический опыт" va boshqalar.

Filologiya fanlari doktori Bahodir Rizaev 1981 yil 30 oktyabrda Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida "german tillari" mutaxassisligi

bo'yicha "Грамматическое значение фазы прекращения процесса и аналитические средства его выражения в современном немецком языке" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1992 yil 2 oktyabrda Rossiya Fanlar akademiyasi lingvistik tadqiqotlar institutida "Aspektnaya semantika vremennykh form nemetskogo glagola" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

B.X. Rizaev o'z ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 4 marta Germaniyada, xususan, A.Gumboldt universiteti (Berlinda), Gyote instituti (Myunxenda) malaka oshirgan. DAAD stipendiati sifatida u Germaniyaning Tyubingen universitetida (2003yil) o'quv qo'llanma ustida ishlab, 2006 yilda «Nemis tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va mamlakatshunoslik» bo'yicha yuqori kurs talabalari va magistrantlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmani chop etgan.

Institut dotsenti, filologiya fanlari nomzodi dotsent Salim Jabborov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor G'aybulloh as-Salom rahbarligida "Gyotening "G'arb-Sharq devoni" Matn, Talqin, Tarjima" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. 60dan ortiq tarjima va adabiyotshunoslikka oid ilmiy maqolalar, "Deutsch mit Vergnuegen" 8-sinf darsligining, "Sprich Deutsch!" talabalar uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmaning, "Gyotening "G'arb-Sharq devoni" nomli monografiya, o'nlab o'quv va uslubiy qo'llanmalar muallifidir. U tarjimon sifatida, Stefan Sveygning "Oy yog'dusidagi ko'cha", "Guvernuyka" novellalarini, Gyotening "G'arb-Sharq devoni"dan ba'zi she'rlarni o'zbek tiliga, G'afur G'ulomning "O'g'rigina bolam" hikoyasini, Alisher Navoiyning "G'urbatda g'arib ..." nomli to'rtligini nemis tiliga o'g'irgan [Samarqandda xorijiy filologiya].

Xulosa qilib aytganimizda "tarjima san'ati" har qanday millat ravnaqi uchun muhim rol uynaydi. Badiiy tarjima madaniyatlararo ko'priikka qiyoslanadi. Chunki tarjima asarlari boshqa millatlar madaniyatini, urf odatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Bu borada badiiy tarjimaning o'rni beqiyos. Ayniqsa,

“bevosita tarjima” – bu har qanday millatning ma’naviy yuksakligini ko’rsatuvchi vositalardan biridir.

Germaniyada o’zbekshunos olimlar to’g’risida xulosa qilar ekanmiz, bu boradagi ishlarning boshlanishi buyuk nemis mutafakkiri Yohan Volfgang Gyote ijodiga borib taqaladi. Gyote Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, adabiyotini chuqur o’rganadi. Firdavsiy, Farididdin Attor, Rumi, Nizomiy, Sa’diy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar ijodi bilan tanishadi. Bu paytda Ibn Sino, Ulug’bek, Alisher Navoiy ijodlaridan namunalar nemis tiliga tarjima qilingan edi. Gyote o’zining “G’arb va Sharq” devonini sharq shariatidan ilhomlanib yozgan.

Germaniyada o’zbek adabiyotiga va o’zbek tiliga bo’lgan qiziqish hozirgi kungacha yuqori darajada. Bu sohada ilk izlanishlarni Hermann Vamberi (asli Vengryalik), Doktor Flaysher, Zigrid Klaynmihel, Barbara Kelner-Haynkele kabi olimlar boshlab bergan bo’lsa, bugungi kunda bu sohada samarali izlanishlar olib borayotganlar Ingeborg Baldauf, Erika Taube, Yakob Taube, Brigitta Xoyer, Yurgen Paul, Klaus Shyoning, Peter Sime, Luts Rjak va boshqa sharqshunos-turkologlarni misol keltirish mumkin. Germaniyaning Gumbold va Fraye universitetlarining Turkologiya institutida faoliyat olib borishgan. Bu institutdan har yili o’nlab talabalar O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, SamDCHTIda yozgi til kurslarida o’zbek tilini o’rganishmoqda.

O’zbek tilini o’rganish bilan birga bu tildagi ko’plab asarlarni olmon tili vakillariga yetkazishga katta hissa qo’shgan tilshunoslardan biri Hermann Vamberini alohida qayd etib o’tmoqchimiz. Uning katta xizmatlaridan biri “Yusuf bilan Ahmad” dostonining nemis tilida qayta yaratilganligidir.

Turkiy xalqlar ertaklari asosida Evropada nashr etilgan dastlabki to’plamlardan biri G. Yungbauerning “Geschichten von Turkistan und Tibet” (Turkiston va Tibet ertaklari) majmuasidir.

Doktor Flaysher “O’zbek xalq qaxramonlik eposi”ning montaj tarjimasini tayyorlar ekan, u kitobni puxta o’rganib, uning eng muhim, nazariy xulosalarga boy yoki katta axboriy xarakterga ega bo’lgan qismlarini tanlab oladi.

O'zbekistonda taniqli olmonshunos tarjimonlar Otaboy Jumaniyozov, Xurram Raximov, Yo'ldosh Parda, Poshali Usmon, Yanglish Egamova, Sadriddin Salim, Safo Ochil, Mirzaali Akbarov, Salim Jabborov, Shuhratxon Imyaminova va Oybek Ostonov va boshqalarni bu sohadagi samarali ijodlarini e'tirof qilishimiz kerak.

II BOB. Rivoyatlar tarjimasida o'ziga xos stilistik jihatlarining berilishi

2.1. Lingvostilistika va adabiyotshunoslik stilistikasi. Tahlil sathlari

Stilistika ikkiga bo'linadi: lingvostilistika (lingvistik stilistika) va adabiyotshunoslik stilistikasi. Shuningdek, ularning birlashgan varianti ham tilga olinishi mumkin, boshqacha aytganda, biri ikkinchisining bazasi bo'lib xizmat qiladigan varianti ham mavjud.

Stilistik bilimlar ma'lum bir asar yoki uning tarjimasini tahlili jarayonida o'zlashtiriladi. Ular bir muammoning ikki aspektidan tashkil topadi, va ular orasidagi farqlarni, shu bilan birga, o'xshashliklarni ham to'g'ri tahlil qilish va anglash lozim.

Lingvostilistika buyuk fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan fanga kiritilgan. Lingvostilistika umummilliy maxsus normalar asosida tilning turli doiralari uchun xarakterli bo'lgan funksional uslublar va dialekt deb atalgan (lingvostilistika bunday tor ma'noda funksional stilistika deb ataladi) va boshqa til elementlarini ularning emotsiya uyg'otish qobiliyatiga, ularning ichki guruhlari va qiymatiga ko'ra qiyosiy tahlil qiladi.

Sharl Balli Shelli odalarini tahlil qilishda identifikatsiya metodidan foydalangan. Identifikatsiya metodi matn elementlarini ularning mantiqiy ekvivalentlari, lekin stilistik va emotsional betaraf elementlari bilan chog'ishtirishdan iboratdir. Sh. Balli bu metoddan lingvostilistik tahlilda foydalangan, lekin u adabiy stilistikaga ishonchsizlik bilan qaragan. Stilistikaning izchillik bilan rivojlanayotgan (o'zgarayotgan) tarmog'i qiyosiy stilistikadir. Unga parallel ravishda ikki yoki undan ortiq tillarning stilistik imkoniyatlari ortmoqda. Modomiki, qiyosiy stilistika badiiy tarjima bilan uzluksiz bog'liqdir. Shuningdek, qiyosiy stilistika adabiy stilistikadan ajralmagan holda, idrok etish uslubidir.

Adabiyotshunoslik stilistikasi barcha badiiy ifoda vositalarini, badiiy asarning, adabiy yo'nalishini yoki butun bir davr uchun xos bo'lgan o'ziga xosliklarini va badiiy ifoda vositalariga xos bo'lgan boshqa barcha faktorlarni

o'rganadi. Modomiki, stilistik tahlillarning katta qismi badiiy matn taqrizlariga oid. Bu jihatdan stilistika poetika va adabiyot nazariyasiga aloqador.

Zero, poetika badiiy asar qurilishi va unda qo'llangan estetik vositalar sistemasi haqidagi fandir. Poetika poetik tilni o'rganuvchi fan sifatida va ko'proq tor ma'noda tushuniladi. Bu jihatdan stilistika poetikaning tarkibiy qismi bo'lmaydi, balki aksincha, poetika stilistikaning jamiyatdagi turli doiralar tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan, shuningdek, sheriyat, matbuot, reklama va boshqalar tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi qismidir.

Poetika tili yozuvchining o'z ona tiliga bo'lgan munosabati, poetik nutq bilan jonli xalq tilining o'zaro yaqinlashuvi, yozuvchining estetik qarashlari, yozuvchi tilidagi an'ana va novatorlik, obrazlilik muammosi, povest yozuvchisining nutqiy obrazi, personaj nutqini berish usullari kabi masalalarni o'rganishda adabiyotshunoslar bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishmoqda [<http://sirojiddinov.blogspot.com/>].

Lingvistik va adabiyotshunoslik stilistikasining tarkibiy bo'linishi nisbiydir (qisman), lekin mutlaqo to'liq emas. Boshqa muhim bo'linishlar aynan yuqorida tilga olingan til stilistikasi va nutq stilistikasiga xosdir. Nutq stilistikasi nafaqat badiiy, balki istalgan nutqiy asarni kuzatadi. Til va nutq stilistikasi munosabatlari O.S. Axmanovning stilistika to'g'risidagi mashhur asarida eng muhim va asosli masalalardan biri sifatida qaraladi. Adabiyotshunoslik stilistikasi esa qaysidir yo'nalish yoki janrda u yoki bu avtor tomonidan bu imkoniyatlarning qo'llanilishidagi o'ziga xosliklarni o'rganadi.

Adabiyotshunoslik stilistikasi poetika kabi adabiyot nazariyasi sohalarida til va voqeiylikni ifodalovchi boshqa adabiy-badiiy vositalarni o'rganadi va adabiyot tarixida muhim o'rinni egallaydi.

Badiiy adabiyot nafaqat stilistikada, balki eng avval adabiyot nazariyasi va tarixida, shuningdek estetikada, psixologiya va boshqa fanlarda o'rganiladi. Ularning har biri o'ziga xos vazifasiga, yo'liga va o'z tadqiqot metodiga ega. Individual stilistik o'ziga xosliklarni ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-ideologik asoslarini ochib berishda, aniqrog'i badiiy asarni tushunishda, uchta ijtimoiy-

gumanitar soha: adabiyotshunoslik, tarix va tilshunoslik fanlari yordamiga tayaniladi. Badiiy asar uslubi va tilini ifodalashda o'sha asar yozilgan davrdagi ijtimoiy hayot madaniyat va o'sha davr tiliga tayanadi.

Adabiyotshaunoslik stilistikasining vazifasi – muallifning ijodiy metodidagi chuqur ta'sirchanlik va uning individual mahoratining o'ziga xosligini ochib berish.

Turli mualliflar lingvistik va adabiyotshunoslik stilistikasini bo'limlarga bo'lishning turli usullarini taklif etishadilar.

Til sathlari o'zaro aloqada va ular boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Sath birliklari o'rtasida distributiv aloqa va ularning bog'lanishlarini izohlovchi shartli qoidalar mavjud.

Leksik sath leksik stilistikaga mos keladi. U leksikaning stilistik funksiyalarini o'rganadi va ularning to'g'ri va ko'chma ma'nolarining o'zaro ta'sirini kuzatadi.

Leksik stilistika adabiyotshunoslik stilistikasidagi kabi lingvistik stilistikada ham so'zning matndan kelib chiqadigan ma'nosini o'rganadi. Eng muhimi ularning ta'sirchanligini (ekspressivligini), baholash potensialini va ularning turli funksional stilistik qatlamlarini o'rganadi. Dialekt so'zlar, atamalar, terminlar, og'zaki nutqqa xos so'zlar va iboralar, neologizmlar, arxaik so'zlar va boshqalar turli kontekst sharoitlaridagi o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan o'rganiladi. Leksikologik stilistika so'zlarning o'zaro qo'shilish modeli, so'z yasovchi modellarning ta'sirchanlik potensialini ham o'rganadi. Leksikologiyaning har bir bo'limi stilistika uchun juda muhim ma'lumot bera olishi mumkin.

Shuningdek, frazeologik birliklar va maqollar tahlili stilistik analizda juda muhim rol o'ynaydi.

Stilistikada grammatik va morfologik stilistika tarkibiy qismlar ajratiladi. Morfologik stilistika u yoki bu nutq bo'lagiga xos bo'lgan turli grammatik kategoriyalarning stilistik imkoniyatlarini o'rganadi. Bunda, masalan, sonlarning stilistik imkoniyatlari, olmoshlar sistemasidagi o'zaro zid qo'yishlar, ot va fe'lga

xos nutq uslubi, badiiy va grammatik zamonlar aloqadorligi va boshqalar tavsif (tahlil) etiladi.

Ta'kidlash joizki, Sintaktik stilistika so'z tarkibining ta'sirchanlik imkoniyatlari va sintaktik aloqa tiplarini o'rganadi. Bu soha tarixiy an'analar va boy adabiyotni o'z ichiga oladi. Bunda eng muhim unsurlar nutq figuralari deb atalgan – sintaktik, stilistik yoki ritorik figuralar, shuningdek, maxsus sintaktik qurilmalardir. Sintaktik stilistikaga abzats tarkibi va tuzilishi va boshqa strukturalar ham tegishlidir. Lingvostilistikadagi kabi adabiyotshunoslik stilistikasida ham hikoyachi va personaj nutqining ifodalanishida har xil formalardan uoqlashaladi. Shuningdek, dialog, o'zlashtirma gap, stilistika va matn nazariyasida yotuvchi boshqa masalalar o'rganiladi.

Asarning, shu bilan birga, tarjimaning lingvostilistik tahlili til vositalarining mazmun va ifoda birligi va o'zaro ta'sirida namoyonbo'ladi.

Tahlilda matn tili til normalariga, turli funksional uslublarga, dialekt va boshqa tilning ichki sistemalariga solishtiriladi. Til elementlarining uslubiy vositalari, funksiyalari va ularning til normalaridan farqli yoki o'xshash jihatlari faqat kontekstda ko'rinadi. Bu – lingvostilistikaning vazifasi. Ta'kidlash lozimki, matn sathlari birgalikda namoyon bo'ladi. Lingvistik, nazariy va tarixiy adabiyot sathlari orasida o'quvchi uchun tafovut bo'lmasligi kerak. Sathlarning o'zaro aloqalari juda yaqin [Karimov 1998; 39].

2.2. Rivoyatlar tarjimasida tasviriyl vositalarning berilishi

Dissertatsiya ishining mavzusi aynan o'zbek xalq rivoyatlarini nemis tiliga tarjimalariga qaratilganligi bois, shu o'rinda, rivoyatlar xususida to'xtalmoqchimiz. Rivoyatlarda badiiylikka ortiqcha urg'u berilmaydi. Chunki ularda voqea bayoni ifodasi ustun turadi. Shunday bo'lsada ularda badiiy tasvir vositalari, jumladan, frazeologik birliklardan, so'z o'yinlaridan va o'xshatishlardan keng foydalaniladi. Ularning qisqaligi va ma'nodorligi rivoyatlarning ta'sirchanligini oshiradi. Rivoyatlarda ko'pincha chuqur ma'noli, ixcham, hikmatona jumlarlar – frazeologizmlar ko'p uchraydi.

Rivoyatlarni bevosita tarjima qilish o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki rivoyatlarda badiiylikka ortiqcha urg'u berilmasada, ularda o'sha xalqqa xos bo'lgan milliylik kabi o'ziga xosliklar mavjuddir.

Tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillarni o'rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o'quv jarayonining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ona tili hodisalarini ongli ravishda o'zlashtirishga ko'maklashadi. Tarjima jarayonida ikki til hodisalarini qiyoslash natijasida ular orasidagi o'xshash va farq qiladigan tomonlarini aniqlash tarjimonning tarjima qilish malakalarini takomillashtirish bilan birga ularning aqliy mushohada va fikr doiralarini kengaytirib, filologik bilimlarini ham mustahkamlaydi.

Badiiy matnlar har xil mazmun nozikliklarini ifodalaydigan badiiy tasvir vositalari, bir-biridan ma'no ottenkalari hamda stilistik vazifalari jihatidan farqlanadigan har xil sinonimik birliklar hamda obrazli frazeologizmlar bilan to'lgan bo'ladiki, ayni vositalarni adekvat talqin etish uchun tekstologik-stilistik tahlil asosida ularning qo'llanilayotgan matnlardan ma'no va funksiyalarni aniqlagan xolda, ona tilida ularga muvofiq vositalar tanlash zarurati turadi. Mazkur jarayon tarjimondan grammatika, leksikologiya, stilistika, frazeologiya kabi filologik soha-tarjima nazariyasi va uning qonuniyatlari bilan qurollangan bo'lishi talab qilinadi. Bu esa tarjimonni tarjima jarayonida tasodifiy yutuqlarga umid bog'lash kabi ko'pincha muvaffaqiyatsizliklarga mahkum bo'lgan xavfdan saqlab qolish bilan birga, ularga amaliy faoliyatda duch keladigan qiyinchiliklarni engish yo'llarini ham belgilab beradi.

Tarjimon avvalo o'zi tarjima qilmoqchi bo'lgan asarning uslubi, til xususiyatlaridan kelib chiqib tarjimaga qo'l urishi kerak. Aks holda tarjimada uslubiy g'alizliklar bo'lishi mumkin. Tarjimon birinchi navbatta, o'z ona tilida badiiy mushohada yuritish iqtidoriga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun tarjimon o'z tilida zabardast so'z ustalarining asl va tarjima asarlarini ko'p o'qishlari, ulardan so'z qo'llash mahoratini, so'zlarning ma'no tovlanishlarini o'rganishi kerak.

Rivoyatlar tarjimasida bir qancha muhim masalalari qatori badiiy tasviriyy vositalar, maqol, matal, idiomalar, soʻz oʻyinlari va obrazli iboralarni bir tildan boshqasiga tarjima qilish muammosi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday tasviriyy vositalar turli asarlarda va ularning tarjimalarida qanchalik ishlatilmasin ularni qoʻllashdan maqsad avtor oʻziga xos bir gʻoyani ilgari suradi. Ular orqali vaziyatni yanada yorqinroq va jonliroq aks ettirishga urinadi.

Fikrimiz isboti sifatida tarjimashunos olim Gʻaybulla Salomov faoliyatiga toʻxtalmoqchimiz. Gʻ. Salomovning nomzodlik dissertatsiyasi “frazologik ibora”, “idioma”, “ibora” larni maqol va matallarning farqlarini ajratishga harakat qilgan. Gʻ. Salomovning taʼkidlashicha “Maqol – xalq aql idrokining mahsuli, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomalada boʻlish jarayonida tugʻiladi” [Саломов 1964; 31].

Shuningdek, mashhur tilshunos olim Fedorovning bu boradagi fikrlarini keltirishimiz mumkin. “Frazologiya masalalari va turli tillarda soʻzlarning har xil birikishiga oid umumiy muammo, tarjima praktikasi bilan birga tarjima nazariyasi uchun ham gʻoyat muhimdir. Chunki turli tillarda moddiy maʼnosi bir xil boʻlgan soʻzlarning maʼno va uslub funksiyalari bir-biridan farq qilishi, turli tillarda bunday soʻz birikmalarining farq qilganligi uchun, tarjima praktikasida katta mushkullik tugʻdirib nazariy jihatdan ham juda katta qiziqish uygʻotadi.” [Fedorov 1958;169]

Demak, uslub – yozuvchi ijodining uning asarlarida takrorlanib turadigan asosiy, tipik gʻoyaviy- badiiy xususiyatlari majmuasi. Yozuvchining dunyoqarashi va u yaratgan asarlarning mazmuniga alokador asosiy goyalar, muallif kuprok tasvirlagan syujet va xarakterlar silsilasi, sanʼatkor ijodida tez-tez uchrab turadigan badiiy tasvir vositalari, uziga xos tili uning individual uslubini tashkil etadi.

Tarjimada muallif uslubi milliy koloritni aks ettirish, aniq va erkin tarjima tushunchasi, obraz va personajlarning til xususiyatlarini tarjimada berish,

adekvat badiiy tarjima yaratish va boshqa o'nlab jumboqlar, maqol, matal va idiomatik birliklarni tarjima qilish masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Biz quyida ba'zi olimlarning ushbu masala yuzasidan ayrim fikrlarini keltirmoqchimiz: "Tarjimonga g'ov bo'ladigan narsa har qanday turdagi idiomatik iboralarni to'g'ri tarjima qilishdir, chunki bu iboralarning ma'nosi ularni tashkil etgan komponentlarning hozirgi vaqtdagi ma'nosidan kelib chiqmaydi" [Бинович 1952; 29]; "... oqibat natijada tarjimadagi qiyinchilik darajasining mezonini keng ma'noda asl nusxa tilining idiomatikligidir", "Tarjimada avtor uslubini aynan berish uchun leksik-frazeologik vositalarni tanlab olib bilish hal qiluvchi ahamiyatga ega" [Рецкер 2010; 34]; "Avtorning individual uslubini va uning asaridagi milliy o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishdek muhim vazifasini hal qilish yo'lidagi qiyinchiliklar ma'lum darajada leksika va frazeologiyani tarjima qilish masalalari bilan badastadir" [Андреев 1989; 143]. "Tarjimada avtorning individual uslubini aks ettirishda frazeologizmlar tarjimasining ahamiyati katta; tarjima nazariyasining frazeologiya va idiomatika muammolarini o'rganish natijalari leksikologiya uchun qimmatli material beradi; badiiy tarjima tufayli tilning frazeologiyasi boyiydi; badiiy asar tilida ifodalangan milliy ruhni aks ettirishda frazeologiyaning roli katta; maqol, matal va idiomalarni buzib tarjima qilish asar tilini kuchsizlantiradi va uning badiiy qiymatiga putur etkazadi" [Саломов 1996; 242].

Ma'lumki, erkin so'z birikmasini tarjima qilganda uning komponentlarini, ya'ni shu so'z birikmasini tashkil qiladigan ayrim so'zlarni tarjima qilish asosiy rol o'ynaydi. Oldin ayrim so'zlar tarjima qilinadi va ayrim so'zlar ma'nosidan shu birikmaning ma'nosi tuziladi.

Frazeologizmlar tarjimasiga xos xususiyatlar shundaki, frazeologik birliklarning ma'nosi uning komponentlar ma'nosidan ustun turadi, shu sababli tarjimon frazeologizmlarni tarjima qilayotganda ularning komponentlari ma'nosiga emas, balki birikmaning umumiy ma'nosiga asoslangan holda tarjima qiladi.

“Frazelogizmlarga obrazlilik va ekspressivlik xos bo’lganligi sabali obrazli frazeologik iboralarga tarjimon alohida e’tibor berishi lozim” [Гурмuroдov 1977; 63].

Frazelogik birliklarni tarjima qilish jarayoni oson kechmaydi, chunki bu jarayon bir nechta faktorlarni o’z ichiga oladi. Bular: So’zlarning turli xil bog’lanishi, omonimlar, sinonimlar, frazeologik birliklarning turli xil ma’noni berishi polisemiya va boshqalar.

Bulardan tashqari frazeologik birliklarda usha xalqqa mansub bulgan uslubiy bo’yoqdorlik mavjudki, ba’zi bir boshqa tillarda u uchramasligi ham mumkin.

Frazeologik birliklarning frazema va idioma kabi turlari mavjud. Frazemalar aniq kontekstdagi qaram va aniq indikatordan tashkil topgan birliklar hisoblanadi. Idiomalar esa, aniq kontekstdagi umumiy ma’noni belgilovchi va komponentlarning kuchsiz ma’nosini beruvchi, qaram va aniqllovchi elimentlarning to’laligi va tengligini belgilovchi leksik frazalardir.

Frazeologik birliklarning har bir turi va shakli aniq mikrotuzilma deb qaralishi mumkin. Frazeologik birliklarni tarjima qilish vaqtida vazifadosh, teng lingvistik birliklar ikki til o’rtasida taqqoslab tanlanadi. Taqqoslash tamoyili o’rtadagi o’xshashlik va farqni ko’rsatib beradi. Bu sistemaning ba’zi aniq qismlari shaklan teng, to’g’ri kelishi (qisman yoki butunlay) ba’zilarining esa umuman muqobil varianti topilmasligi ham mumkin.

Badiy tarjimaning murakkabligini yana shunda ko’rishimiz mumkinki, har bir tilning o’zga tillardan farq qiladigan o’ziga xos milliyligi mavjud. Demak, mutarjim tarjimaning ijodiy jarayon ekanligini anglashi va o’zga tildagi xar bir ditalga ijodiy yondoshishi lozim. Shundagina, tulaqonli badiiy etuk tarjimaga erishishi mumkin.

Har qanday matnni tarjima qilish jarayonida mutarjim o’ziga xos va odatdagi masalalarga duch keladi. Bu masalalar jumlasiga tarjimaning lingvostilistik muammolaridir. Bu muammolar turli lingvistik tahlillar orqali o’rganiladi. Bulardan biri stilistik tahlildir.

Stilistik tahlil – matndagi badiiy tasvir vositalarini izohlash. Tasviriyy vositalar turli xil uslub va janrda qo'llanilib u umumtilga hamda avtorga tegishli bo'lishi mumkin. Asarda ishtirok etayotgan qahramonning nutq qurilishi tilning leksik tarkibi, uning xarakterini ochishda muhim vosita sanaladi.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi: a) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent topish; b) asar o'girilayotgan tilga monand, muqobil variant topib qo'yish; v) frazeologizmlarni aynan, so'zma – so'z tarjima qilish.

Har uchala hol ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi.

Maqol va matallarni tarjima qilishda imkon qadar yuqori natijalarga erishish maqsadida quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

Birinchidan; tarjima tilidagi maqol asliyatga ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham aynan mos tushadigan tarjima (ekvivalent).

Masalan: “Nimani eksang shuni o'rasan” nomli rivoyat [Ахмедов 1991; 42] “*Man erntet, was man sät*” deb tarjima qilingan. [Ostonov 2014;72].

Ushbu maqol o'zbek tilidagi “*Nimani eksang shuni o'rasan*” yoki “*Ekkaningni o'rasan*” maqollariga to'liq ma'no va shakl jihatdan mos keladi. Oybek Ostons tomonidan tarjima qilingan rivoyatlardan biri shu maqol bilan nomlangan.

Ikkinchidan; ma'no jihatidan tarjima tilidagi variantiga mos, lekin shakl asosi bo'yicha undan butunlay yoki qisman farq qiluvchi tarjima usuli bu - so'zning analogini (o'xshash) topish.

Masalan, asliyatda “*Quruq va'da*” deb nomlangan rivoyat tarjimada “*Besser der Spatz in der Hand als die Taube auf dem Dach*” maqoli bilan nomlangan [Ostonov 2014;30]. Ushbu maqolning o'zbek tilida quyidagicha analoglari mavjud: “*Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi*” yoki “*Uzoqdagi bug'doydan yaqindagi somon yaxshi.*”

Ular ma'no jihatdan mos, lekin shakl asosi bo'yicha ular o'zaro farqli ekanligi ko'rinib turibdi. Chunki nemis tilidagi bu maqolning so'zma-so'z

tarjimasi quyidagicha: “Tomdagi kabutardan kaftingdagi chumchuq afzal”. Bundan ma’lum bo’ladiki, o’zbek tilidagi “quyruq bilan upka” yoki “bug’doy bilan somon” tarjimada “kabutar bilan chumchuqqa” almashmoqda. Lekin bu almashish asliyat va tarjima ma’nolariga mutlaqo salbiy ta’sir ko’rsatmagan. Chunki bu maqollar o’zaro analog hisoblanadi, ya’ni ular bir xil ma’nolidir.

“Ma’muns Geheimnis” (Ma’munning siri) nomli rivoyatdan olingan quyidagi misolga e’tibor bering:

“Durch den Verrat des Geheimnisses hatte er sein Leben verwirkt”
[Ostonov 2014;15].

Tarjimasi:

“U sirni ochib qo’yib o’zini boshiga o’zi yetdi”.

Bu erda tarjimon “o’zini boshiga etmoq” iborasini nemis tilidagi analogi *“sein Leben verwirken”* iborasini ustalik bilan qo’llagan. Bunday iboralarning komponentlari bir-biriga doimiy ravishda tobe bo’lib ularni o’zgartirib bo’lmaydi. Masalan, yuqoridagi misolda *“sein Leben verwirken”* iborasi “O’z hayotidan mahrum bo’lmoq” emas, “o’zini boshiga etmoq” tarzida tarjima qilinadi.

Uchinchidan; tasvirlash yoki tasviriy tarjima. Tarjima tilidagi iborani erkin so’z birikmasi orqali berish. Bu tarjima metodi o’zbek tilida xuddi shu iboraga mos ekvivalenti topilmagan hollarda qo’llash mumkin.

Shuningdek, tarjima jarayonida transformatsiya turlaridan foydalaniladi. Rivoyatlar tarjimalarini lingvostilistik jihatdan va ayniqsa ulardagi transformatsiya hodisalarini tahlil qilishda birinchi navbatda shuni ta’kidlashimiz lozimki, tahlil jarayonida tarjimaga va uning tahliliga munosabat bildirilayotganda “asliyat” tushunchasiga nisbiy yondashish lozim. Chunki rivoyatlar boshqa turdagi asarlar kabi bitta avtor yoki asliyatga ega bo’lmaydi. Ular xalq og’zaki ijodidir. Shuning uchun ularning bir nechta “asliyat” varianti bo’lishi mumkin. Bu esa rivoyatlarni tarjima qilish va ularni tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Tarjimaning asosiy maqsadlaridan biri – adekvatlikka erishish. Adekvatlik, boshqacha aytganda, ekvivalent tarjima – bu shunday tarjimaki, tarjima tilida almashtirish zarur bo'lgan ifoda vositasi qaysidir darajada mos variantlariga almashtirish orqali amalga oshiriladi.

A. V.Fedorov ta'rifi bilan aytganda – bu asliyat mazmun mohiyatini va unga to'liq funksional-stilistik mosligini mukammal darajada etkazib berish ("исчерпывающая передача смыслового содержания подлинника и полное функционально-стилистическое соответствие ему ") [Федоров 1983; 03].

Tarjimonning adekvatlikka erishishdagi asosiy vazifasi – tarjima jarayonida tarjima tilining normalariga muvofiq asliyat matnidagi ma'lumotlarni iloji boricha to'lig'icha etkazish uchun chiroyli va turli xil transformatsiyalar yaratish.

Ma'lumki, tarjima tillararo transformatsiyalar (tabdil) majmuasi bo'lib, bunday transformatsiya turlariga quyidagilar kiradi:

- 1) qayta qurish (перестановки);
- 2) almashtirishlar (замены);
- 3) qo'shishlar (добавления);
- 4) tushirib qoldirishlar (опущения) [Бархударов 1975;11].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Tillarning turli oilalarga mansubligi, ularning bir – biridan farq qilishi mutarjim uchun katta qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy hodisadir.

Ayonki, o'zbek tiliga tarjima qilishda qaysi axborot o'sha kontakt uchun muhim bo'lsa, o'sha ma'lumot gapning oxiriga, ya'ni ega va kesimning yaqiniga joylashtiriladi. Ma'lumotning muhimlik darajasini tarjimon izchil o'rganadi.

Tarjima jarayonidagi transformatsiyalarda leksik almashtirish keng tarqalgan usul bo'lib, uning ikki turi mavjud:

- a) so'z formalarini almashtirish;
- b) gap bo'laklarini almashtirish.

Birinchi usul so'z formalarini almashtirilishi ya'ni so'zlarni so'z yasovchi qo'shimchalari, birlik va ko'plik qo'shimchalarining tarjimada berilishidir.

Leksik almashinuvning ikkinchi usuli bu gap bo'laklarini almashtirish. Leksik almashinuvning eng sodda usullaridan biri otlarni olmoshlar bilan almashtirishdir. Almashtirish usulini tarjimada qo'llashdan maqsad sodda va ravon nutqni shakllantirish va asliyat maqsadini oydinlashtirishdir. Bu usulda matndagi otlar tarjimada olmoshga yoki fe'lga almashishi, shuningdek shaxsi noma'lum gap shaxsi ma'lum gapga aylanishi mumkin. Sodda gaplar tarjimada murakkab gaplarga aylanishi yoki aksincha murakkab gaplar bir nechta sodda gaplarga aylanishi mumkin. Bu transformatsiyaning bir nechta turlari mavjud. Masalan, bog'lovchili gaplarning bog'lovchisiz gaplarga aylantirilishi mumkin.

Transformatsiyaning qo'shish va tushirib qoldirish kabi usullari ham mavjud. Qo'shish usuli tarjimada retseptor (o'quvchi) uchun nomalum axborotni aniqlashtirish maqsadida qo'llanadi. Ba'zida qo'shish metodi tarjimonning badiiy ifoda uslubiga hos bo'lishi ham mumkin.

Tushirib qoldirish usuli qo'shish usuliga teskari usul bo'lib, tarjima asliyatdagi qo'shma sinonimlardan biri, ikkita bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlardan birini tushib qolishidir.

Shuningdek, leksik-semantik almashinuvlarning quyidagi turlari mavjud:

a) konkretlashtirish –shunday o'niversal so'zlar borki ularni konkret vaziyatlarda aniqlashtirib tarjima qilish mumkin;

b) generalizatsiya – konkretlashtirishning teskarisi bo'lib, konkret ma'noda qo'llangan so'zlarni keng ma'nodagilariga almashtirishdir;

v) antonimik tarjima – tarjimaning bu turida inkor ma'nodagi gap tasdiq (darak) formada tarjima qilinadi;

g) kompensatsiya – tarjimada ekvivalentlikka erishishning usullaridan biri bo'lib tarjima tilida yo'qotishlar o'rnini qoplash maqsadida qo'llanadi. Bunda asliyatdagi biror so'zga tarjima tilidagi sal kengroq ma'nodagi boshqa bir so'z tanlanadi. Ma'lum bir so'z tarjimada unga yaqin ma'nodosh boshqa so'z bilan almashtirish leksik bo'yoqdorlikni kuchaytiradi;

d) stilizatsiya – tarjimashunoslikda stilizatsiya metodi, qadimgi davrga xos uslubni tarjimada berish uchun qo'llaniladi. Qadimiy tarixiy asarlar dostonlar va jangnomalar ruhiyatini tarjimada aks ettirish maqsadida jumlarlar tarjima tilida qadimiy so'z va iboralar bilan asliyat davriga moslashtiriladi.

Bizga ma'lumki, til doimiy ravishda yangi lug'aviy birliklar hisobiga boyib boradi. Hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz tug'ilmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeiga ko'ra farqlanadi. Har qanday yangi paydo bo'lgan lisoniy birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qo'llanadigan so'zlar borki, ular hamisha yangiligi, g'ayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday so'zlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan so'zlar tilshunoslikda og'zaki nutq okkazionalizmi, ma'lum ijodkorlar tomonidan yaratilgan so'zlar esa individual - yakka nutqqa xos, ya'ni badiiy okkazionalizmlar deb yuritiladi. Okkazional so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yaratiladi.

Okkazionalizmlar bir marta qo'llanishi va o'ta ta'sirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklaridan farqlanib turadi.

O'zbek tilida okkazional so'zlarni izchil ilmiy asoslarda o'rganish XX asrning 90- yillari oxiriga to'g'ri keladi. S.Toshaliyeva "O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi" [Тoшaлиeвa 1998] mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu ushbu muammoga oid birinchi monografik ish edi. Tadqiqotchilari okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham

to'xtaladi. U okkazonal so'zlarni to'rt tipga ajratadi: leksik okkazonalizmlar, semantik okkazonalizmlar, okkazonal yasalmalar va okkazonal ibora. Tadqiqot, asosan, okkazonal so'zlarning yasalishiga bag'ishlangan bo'lib, unda okkazonal so'z yasalishi usullari atroflicha yoritilgan. Unda ko'proq matbuot tili va barcha janrlarda uchraydigan okkazonal so'zlarning yasalish strukturasi tahlil qilingan.

So'zning tug'ilishi, yaratilish jarayoni bilan tanishish qiziq va muammoli ma'lumotlar beradi. Rus tilshunosligida bu masalaga V.V.Lopatinning "Rojdenie slova" nomli monografiyasi bag'ishlangan bo'lib, unda okkazonalizmlarning yaratilishiga ham katta e'tibor berilgan. Tadqiqotchi monografiyaning ikkinchi bobida to'laligicha shu muammoni yoritadi. U bunday tasodifiy so'zlarni atash haqida to'xtalib, shunday deydi: "Bunday so'zlarga nisbatan "neologizm" terminini qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Ko'pgina tilshunoslar ularni boshqacha atash to'g'risida fikr bildiradilar. Bunday so'zlarga nisbatan ishlatiladigan, ko'p tarqalgan termin okkazonal so'zlar yoki okkazonalizmlardir (lotincha occasio - tasodif). Biz ham shu termindan foydalanamiz" [Лопатин 1973;48].

V.V.Lopatin boshqacha terminlar ham mavjudligi haqida bunday deydi: "Lingvistik adabiyotlarda okkazonal so'zlarning boshqacha termini ham mavjud. Ular turli mualliflar tomonidan taklif etilgan va "okkazonalizmlar" termini kabi keng doirada qabul qilinmagan." Demak, tadqiqotchi bu terminlarni keltirish o'rinli ekanligini, ularning har biri o'zini oqlashini, o'rganilayotgan hodisaning o'ziga xos tomonini tavsiflashini va bu bilan ushbu hodisa har tomonlama yoritilishini aytadi. So'ngra olim bu terminlarni sanab o'tadi: individual so'zlar, muallif so'zlari yoki individual-muallif neologizmlari, stilistik yoki individual-stilistik neologizmlar, matn neologizmi, bir martalik neologizmlar, adabiy neologizmlar, o'zi yasalgan so'zlar (slova-samodelki), ekspromt-so'zlar, meteor so'zlar, shoir neologizmlari yoki poetik neologizmlar. Bular, bizning nazarimizda, eng munosib terminlar (nomunosib deb

hisoblaganlarimizni bu erda keltirmadik, chunki ular real emas (“nerealnye”),”- deydi u [Лопатин 1973;62].

O'zbek tilshunosligida ham okkazionalizm termini keng qo'llanish doirasiga kirmagan. Bu termin A.Hojievning “Lingvistik terminlarning izohli lug'ati”da [Хожиев 1985;63], va boshqalarlarning tadqiqotlarida ishlatilgan. Boshqa ishlarda “yangi so'z” [Самадов 1967;140], “so'z qo'llash” [Рустамов 1973], “individual-stilistik neologizm” [Абдурахмонов 1981; 29-38] kabi terminlar ishlatiladi.

Okkazional so'zlarning ko'pchiligi matnsiz ham tushunarli bo'lishi mumkin. Masalan, changiston, balchig'iston, arslonvor, o'yparast, gulparast, kulgudosh kabi okkazionalizmlari o'qigan va eshitgan odamlarga ham tushunarli. Ularning ma'nolari ko'z oldimizda biror obrazni yaratadi. Lekin ular bizga g'alatiroq, kulgiliroq tuyuladi. Cpangiston so'zini o'qiganimizda xayolan “Obbo azamat-e, changning o'ta ko'pligini ko'rsatadigan ajab termin topibdimi” deymiz. Arslonning o'zi — bahaybat hayvon, arslonvor so'zi tasavvurimizda nafaqat arslonga o'xshashlikni, balki arslonning mahobati, ulug'vorligiga o'xshashlik obrazini yaratadi. Qiyoslaylik: arslondek - arslonvor, ulug'vor - arslonvor kabi. O'yparast haqida ham shunga o'xshash fikrni bildirish mumkin. Nazarimizda, o'ychan –o'zida o'y surish belgisi normada, “o'yparast”da esa bu belgi nihoyatda kuchli ifodalanadi. Kulgudosh so'zi sinfdosh, fikrdosh, qishloqdosh so'zlari qolipi asosida yasalgan. Mazkur okkazional so'zda “birga kuladigan” ma'nosi bilan birga “doimiy”lik ma'no qirrasi ham ifodalanadi. Bunday so'zlar matnsiz ham tushunarli bo'laveradi. Ularga “g'alatilik” belgisi juda ham xosdir.

A.Mamatov o'zbek tilshunosligida okkazional so'zlarni adabiy normaga munosabati nuqtai nazaridan tadqiq etgan. U ham nutqqa xoslikni okkazional so'zlarning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ajratadi va ularning yaratilishidagi asosiy holatlardan biri nutqqa rang-baranglik berish ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi o'zbekcha okkazional so'zlarning etti belgisini ko'rsatadi. Ular:

- 1) nutqqa taalluqlilik;
- 2) nonormallik,
- 3) bir marta qo'llanishlik;
- 4) so'zlovchi yoki adiblar tomonidan yaratilish;
- 5) ekspressivlik;
- 6) so'z yasash qoidalariga amal qilish;
- 7) tarixiy-zamonaviy moslashish. [Маматов 1991;203-207]

Tadqiqotchi bunda nominativlik belgisini hisobga olmaydi. Nazarimizda, okkazional so'zlarga bu belgi xos, chunki ular ham borliqdagi narsa - predmetlar, hodisa va harakatlarning nomidir. Masalan, qumzor, yozloq, g'o'zapoyahokim, futbolgoh, qishboy, xo'pchi, hazilvon kabilar yo joyni yoki shaxsni ataydi.

Okkazional so'zlarning qo'llanish jihatidan bir martaligi ularning muhim xususiyatlaridan biridir. Okkazionalizmlar nutqda faqat bir marta ishlatilib, nutqiy holatlarga o'ziga xoslik bo'yog'ini beradi, ifodada aniqlik, yaratuvchanlikni ko'rsatadi, til originalligi, izlanishda tilning mavjud imkoniyatlarini safarbar etishni taqozo etadi.

Tilshunoslikda okkazional so'zlarning "individual so'zlar", "muallifning yangi so'zlari", "individual-muallif neologizmlari", "uslubiy neologizmlar" yoki "individual-uslubiy neologizmlar", "matniy neologizmlar", "bir martalik neologizmlar", "shoir neologizmlari" yoki "poetik neologizmlar" kabi nomlari mana shu xususiyati bilan bog'liq [Лопатин 1973;64].

Okkazional so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi mazkur nomlar ichida bir martalik neologizmlar degan nomni alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu nom okkazional so'zlarning funksional jihatdan bir martalilik xususiyatini ko'rsatadi.

Okkazional so'zlarning ta'sirchanligi ikki xil bo'ladi: so'zning matn bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ta'sirchanligi va ichki ta'sirchanlik. Masalan, biror shaxsning xarakteri haqida so'z ketar ekan, tillo odam deyish mumkin. Tillo so'zi ushbu matnda ta'sirchan eshitiladi. Endi bu so'zning to'g'ri

ma'nosini olib ko'raylik: tillo uzuk. Bunda faqat informativlik bor-u, lekin ta'sirchanlik kuchi mavjud emas.

Shunday qilib, okkazional so'zga quyidagicha ta'rif berish mumkin: okkazional so'zlar o'zida sinxron-diaxron qorishiqilik, me'yorsizlik (anormallik), nutq uslubi yoki muloqotning ayni shu daqiqasida yuz beradigan nominatsiya, so'z yasash xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ekspressiv nutqiy birlikdir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn asosini so'z, so'z birikmalari, iboralar, frazeologik birliklar, idiomalar, misol, matal kabilar tashkil etadi. Matndagi har bir so'z va iboralar mantiqan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, mazmun va ifoda birligi yagona mantiqan mushtaraklikni tashkil etadi. Bu mushtaraklikni tarjimada to'laligicha aks ettirish tarjimondan katta mas'uliyat, bilim va ijodkorlikni talab etadi. Shundagina tarjimada adekvatlikka erishish mumkin. Shu bois, tarjimon matndagi har bir gapning semantik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan so'z va iboralarni tarjima qilib, sintaktik jihatdan bir tizimga solib, asliyatdagi gapning tarjima tilidagi to'laqonli variantini yaratadi. Shu bilan birga, tarjimon tarjima jarayonida asliyatga xos milliy mentalitetga duch keladi va undan ijodkorlikni, izlanuvchanlikni talab etadi.

Badiiy matnga xos stilistik vositalarni tarjima qilish, ayniqsa, maqollar tarjimasi juda mushkul vazifa. Milliy-madaniy xususiyat, til ruhiyatini tarjimada aks ettirish uchun tarjimon qiyin vaziyatni boshidan kechiradi. Badiiy asarlarning tarjimalari mutarjimdan juda katta matonat va jasorat talab etadi. Shunday ekan frazeologik birliklarni tarjima qilganda qanchalik mohir tarjimon bo'lmasin, muvafaqqiyatli chiqavermaydi. Bu mahalda asliyatdan uzoqlashmaslik eng to'g'ri yo'l degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III BOB. Rivoyatlar tarjimasida lingvostilistik tahlillar

3.1. Frazeologik birliklar va aforizmlar tarjimasidagi uslubiy

o'zgarishlarga doir

Aksariyat tarjimonlar “rivoyat”larni nemis tiliga o'g'irganda ularni „die Erzählung“, „die Geschichte“ yoki „die Legende“ deb atashadi. Masalan, bizning dissertatsiyamizning asosiy obyekti, tarjima matni sifatida olingan Oybek Ostonovning rivoyatlar to'plami kitobi “Geschichten entlang der Seidenstraße – Weisheiten des Orients”, ya'ni “Ipak Yo'li hikoyalari – Sharq donishmandligi”deb nomlangan. Bu yerdagi “die Geschichte” so'zi – “sarguzasht” deb tarjima qilinadi. Balki bu to'plamda rivoyatlardan tashqari hikoyalar, afsonalar, matallar va latifalar ham berilganligi uchun mutarjim kitobni shunday namlagan bo'lishi mumkin. Chunki „die Geschichte“ so'zi uning boshqa sinonimlariga qaraganda umumiyroq ma'noga ega.

Biz esa “rivoyat” – so'zini aynan “die Sage” deb tarjima qilishga qaror qildik. Bu so'z “rivoyat” so'ziga aynan mos keladi. Qiyoslash, va fikrimiz isboti sifatida nemis tilining izohli lo'g'atidan bu so'zning izohini beramiz – “*die Sage*”-, -n; *eine sehr alte Erzählung von Helden, Kämpfen oder ungewöhnlichen Ereignissen* <deutsche, griechische, klassische, mittelalterliche Sagen; Sagen überliefern> Langenscheidt KG, Berlin und München [Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache 2010: 928]. ko'rib turganimizdek bu so'z ma'no jihatdan “rivoyat” so'ziga ko'proq to'g'ri keladi.

Tarjima jarayonida tarjimon quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozim:

- a) frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning moddiy ma'nosini saqlagan holda aniq tarjima qilish;
- b) asl nusxadagi frazeologizmlarning mazmuni yoki shaklini biroz o'zgartirgan holda;
- v) asl nusxadagi frazeologizmlarni tarjima qilinayotgan tildagi mavjud bo'lgan muqobili orqali o'girish.

Ayniqsa, frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning moddiy ma'nosini to'liq saqlagan holda aniq tarjima qilish eng sarmahsul usullardan bo'lib, tilni yangi frazeologizmlar hisobiga boyishiga sabab bo'ladi.

Quyida O. Ostanov tomonidan nemis tilida qayta yaratilgan sharq rivoyatlari, hikoyalar, ertaklar va latifalardan iborat "Geschichten entlang der Seidenstraße – Weisheiten des Orients" nomli to'plamda berilgan rivoyatlar ustida ayrim lingvostilistik tahlillarni amalga oshirishga harakat qilamiz.

Yosh tarjimonning to'plamida ertaklar, matallar, latifalar bilan birga, Abdulla al- Ma'mun, Ibn Sino, Mahmud G'aznaviy, Amir Nosir ibn Ahmad Somoniy, Mirzo Ulug'bek va Bahovuddin Naqshbandiy kabi tarixiy shaxslar haqida rivoyatlar tarjimasi ham berilgan.

Biz ushbu dissertatsiyamizda aynan shu rivoyatlarning tarjimalarini batafsil tahlil qilishga harakat qildik. Mutarjim o'z tarjimalarida maqol, matal, idioma kabi badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan.

Tarjimalarni mutarjim imkon qadar rivoyatlarga xos sodda va aniq tilda amalga oshirgan. Asliyat matnidagi milliylikka xos unsurlar, maqollar, hikmatli so'zlar, iboralar, frazalar, okkazional so'zlar, idiomalar va boshqa tasviriy vositalar tarjimasidagi o'ziga xosliklar imkon qadar to'lig'icha saqlangan. Sharqona urf-odatlar va milliy koloritni saqlashda mutarjim asosan transformatsiya, transkripsiya, transliteratsiya usullaridan foydalangan. Realizmlar tasnifi esa kitob so'ngida birma-bir izohlangan. Bu o'quvchi uchun ancha qulaylik yaratadi. Shu tufayli buni tarjimonning yutug'i deyishimiz mumkin.

Quyida ushbu tarjimalar ustida ayrim tahliliy mulohazalarni keltiramiz. To'plamda "Alexander der Grosse und der Kaiser von China" [Ostanov 2014; 16] nomli rivoyat berilgan. Asliyatda bu rivoyat "Iskandar va chin shohi" deb nomlanadi [Авфий 1977; 77]. Rivoyat so'ngida Buyuk Aleksandrni o'zining vasiyatiga ko'ra uni dafn marosimida narigi dunyoga quruq qo'l bilan ketayotganligini ko'rsatish maqsadida uning qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishadi.

Bu rivoyat O. Ostonov tomonidan ustalik bilan, yanada ta'sirliroq qilib tarjima qilingan. U rivoyat oxirida quyidagi gapni o'zidan qo'shadi: *“Das letzte Hemd hat keine Tasche”* [Ostonov 2014;19]. Tarjimasi: - *“so'ngi ko'ylakning hamyoni yo'q edi”*. Bundan tashqari, bu jumlada mutarjim *“kafan”* so'zini *“das letzte Hemd”* – *“so'ngi kuylak”* iborasi orqali tasviriy tarjimani amalga oshirgan.

Boshqa tasviriy vositalar qatori idiomalar tarjimasi ham mutarjim oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'plab idiomalar o'z variantlariga ega. Ularning ko'pchilik qismini tashkil qiladigan leksik variantlardan tashqari leksik-morfologik va har xil strukturaga ega bo'lgan idiomalar mavjud. Masalan:

Asliyatda:

Halifa ularga javob qilibdi: omillarim orasida undan rostgo'yroq va haqparasti yo'q. Uning har a'zosi, tirnog'idan sochigacha haqparastlik va adlu insof bilan to'ladir.

Tarjimada:

Der Kalif aber antwortete: „Unter meinen Amtsträgern gibt es keinen, der so aufrichtig und gerecht ist wie jener Mann dort. Er strotzt am ganzen Körper, vom Scheitel bis zur Sohle, vor Gerechtigkeit und Ehrlichkeit.“

Asliyatda *“Haqparast omil”* nomli bu rivoyat tarjimada *“Gerechter Omil”* deb nomlangan. Rivoyatdan olingan quyidagi misolga e'tibor bering:

“Er strotzt am ganzen Körper, vom Scheitel bis zur Sohle, vor Gerechtigkeit und Ehrlichkeit.” [Ostonov 2014;15]

Tarjimasi: *“Uning butun tanasi sochidan tirnog'ining uchigacha rostgo'ylik va adolatdan iboratdir.”* Bu misoldagi iboraning bir nechta variantlari mavjud: *“vom Scheitel bis zur Sohle”* – boshidan tovonigacha, vom Kopf bis Fuß – boshidan oyog'igacha, ganz und gar – butunlay va boshqalar.

Mashhur sharq tabibi, olim Ibn Sino haqida *“Mushuk tomiri”* deb nomlanadigan xalq rivoyati mavjud. Ibn Sino juda istedadli shifokor bo'lgani uchun uning mijozlari shunchalik ko'p ediki, u kasallarni hammasini o'z

xonasida qabul qilishga ulgurmasdi. Shuning uchun u o'zi o'tiradigan qabulxonadan xovli tomonga bir ip tortib qo'ygandi. Ipni bir tomonini bemor, ikkinchi tomonini Ibn Sino ushlab turib uni tekshirardi. Bu orqli u mijozlarni tomir urishini xonasiga kiritib o'tirmasdan ularga tashxiz qo'yardi. Kunlarning birida bir ayol Ibn Sinoni mahoratini sinash maqsadida o'zining mushugini olib kelib uning oyog'iga ipni bog'laydi. Ammo juda sezgir Ibn Sino buni darrov sezadi. Shundan so'ng uning iste'dodiga hamma qo'il qoladi.

O. Ostonov bu rivoyatni *“Der geprüfte Arzt”* (“Sinalgan tabib”) deb nomlagan. [Ostonov 2014;57]

Tarjimada voqealar quydagicha o'zgarib ketgan. Unda ayol kasal mushukni ro'molga o'rab paltosining ichiga solib keladi va Ibn Sinodan uning paltosi ustidan tomir urishini tekshirishini so'raydi. Ibn Sino ayolni u istaganday qo'lini ayolning kiyimi ustidan qo'yib tekshirib ko'radi va shunday javob beradi:

“Siz sog'lomsiz, lekin yaqinda beshta tukli bola ko'rasiz”.

Ushbu tarjimadan olingan quyidagi misolga e'tibor bering;

“... trotzdem bekommst du bald fünf wollige Kinder ...”

Tarjimasi: “... lekin yaqinda beshta tukli bola ko'rasiz”. Bu erda mutarjim “fünf wollige Kinder” so'z birikmasi orqali mohirlik bilan so'z o'yinini amalga oshirgan.

Ko'rinib turibdiki, tarjimada personajlar, voqealar, predmetlar mutlaqo o'zgarib ketgan bo'lsada, rivoyatlarga xos bo'lgan asosiy maqsad, uning g'oyaviy mazmuni va maqsadi tarjimada to'liq saqlab qolingan.

Xalq rivoyatlarida axloq va odobning ideal me'yorlari, ibratli axloqiy g'oyalar targ'ib qilinadi. Shuning uchun rivoyatlarda maqollar va aforizmlardan (hikmatli so'zlar) keng foydalaniladi. Aforizmlar ko'zlangan maqsad va mazmun jihatdan rivoyatlarga juda ham yaqin. Aforizmlar (yunoncha *aphorismos* - hikmatli so'z) ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so'zlar kabi ma'nolarni anglatadi [O'zbek til. iz. lo'g'. “A”; 95].

Rivoyatlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ular aforizmlar (hikmatli so'zlar)ga boy bo'ladi. Aforizmlar ko'pincha rivoyatlarning oxirida keladi. Aforizmlar – tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora, bayt, jumla. Xalq maqollaridan farqli ravishda, aforizmlar kelib chiqishi jihatidan ma'lum bir shaxsga (yozuvchi, shoir, faylasuf, olim, davlat arbobi va b.) mansub bo'lib, individualligini saqlab qoladi. Hikmatli so'zlarning mustaqil janr shaklidagi namunalari bilan birga ilmiy, falsafiy, tarixiy hamda badiiy asarlar tarkibida uchraydiganlari ham bo'ladi. Ba'zan asar boshdan-oyoq hikmatli so'zlardan iborat bo'lishi o'am mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning ayrim asarlari hikmatli so'zlarga boy (“Nazm ul-javohir”, “Mahbub ul-qulub” va b.). Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida hikmatli so'zlarning asosiy qismi pand-nasihat, o'git, tanbeh shakllarida bo'ladi. Xalq jonli tiliga, maqollarga yaqin hikmatli so'zlar ham ko'p uchraydi. Masalan, “O'qsiz askar – qilichsiz qin” (Oybek), “Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo'lmas” (A.Qahhor). Ba'zi hikmatli so'zlar shaklan quyma holga kelib, ommaviy qo'llanishga o'tgach, maqolga aylanib qoladi. Masalan, “Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim” (A.Navoiy). O'zbek yozuvchilaridan Hamza, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda kabi san'atkorlar o'z asarlarida hikmatli so'zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tilining rivojiga samarali hissa qo'shganlar.

Aforizmlar bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish esa mutarjimdan juda katta mahorat talab etadi. Quyida biz ayrim o'zbek xalq rivoyatlaridagi aforizmlarning bavoita nemis tiliga tarjimasiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

B. Ahmedovning “Ajdodlar o'giti” to'plamida “Sohib ixtiyorning keragi yo'q” nomli rivoyat berilgan. Bu rivoyat O. Ostanov tomonidan “Man braucht keinen Wesir” nomi bilan tarjima qilingan [Ostanov 2014;24]. Rivoyatdan olingan ushbu parchaga e'tibor bering.

Asliyatda: Seiston hokimi amir Abulfazl sulton Alp Arslondan nega u o'ziga sohib ixtiyor (vazir) ushlamasligini so'raydi. Sulton esa jahli chiqib,

“ – Kim menga do’stu kim yovligini bilayin deb atayin sohib ixtiyor tutishning ne foydasi bor? Basharti shunday qilguday bo’lsam do’stlarim-ku to’g’ri tushunadilar, ammo dushmanlarim foydalanmoqchi bo’lib unga pora beradilar. SHundan keyin sohib ixtiyor menga do’stlarim haqida yomon so’zlar gapiradi. YAxshi so’z ham, yomon so’z ham xuddi nayzaga o’xshaydi. Kunmas-kun nishonga tegadi. Oqibatda do’stlarimdan ajrab qolaman. [АХМЕДОВ 1991;13]

Ushbu rivoyatda qo’llangan,

“Yaxshi so’z ham, yomon so’z ham nayzaga o’xshaydi. Kunmas-kun nishonga tegadi.” – aforizmi O.Ostanov tomonidan quyidagicha tarjima qilingan:

Sowohl die guten Worte wie auch die schlechten ähneln dem Pfeil des Bogens: Eines Tages trifft er das Ziel. [Ostanov 2014;25]

Tarjimon bu yerda ayrim transformatsiyalarni amalga oshirgan. Masalan, asliyatda yaxshi va yomon so’z nayzaga qiyoslangan, tarjimada esa ular “nayza” – kamon o’qiga (Pfeil des Bogens) aylantirilgan. Bu so’zlar tarjimasidagi almashtirish aforizm ma’nosini o’zgartirmagan. Chunki asliyatdagi “nayza” va tarjimadagi “kamon o’qi” (Pfeil des Bogens)predmetlari deyarli bir xil vazifani bajaradi. “kunmas-kun” qo’shma so’zi esa – “eines Tages” (bir kuni)ga o’zgartirilgan. Bu kichik o’zgarishlar bizningcha, asliyat ma’nosini berishga salbiy ta’sir etmagan.

“Yaxshilik bir jabrdiydaga himmat ko’rsatishdir” – hikmatli so’zlari bilan nomlangan rivoyatni [АХМЕДОВ 1991;29] mutarjim “Der Lohn der guten Tat” (yaxshi ishning mukofoti) deb nomlagan. Tashqaridan qaraganda tarjima asliyatdan ancha uzoqlashgandek ko’rinadi. Lekin rivoyat mazmunidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, rivoyat nomi tarjimada to’g’ri tanlangan. Chunki rivoyatning asosiy g’oyasi birgina jabrdiydaga qilingan yaxshilik boshqa turdagi bir qator savob ishlardan ustunligini ko’rsatishdir. Rivoyat qaxramoni umri davomida aholiga ko’p jabr-sitam etkazgan, lekin keksayib qolganda gunohlarini yuvish uchun masjidida madrasalar qurdiradi, ikki bor haj qiladi va

sadaqalar qiladi. Shu ishlari qatorida bir juda ham ayanchli ahvolda qolgan, butun badani yara bo'lib ketgan itni davolatadi. Shu birgina yaxshiligi orqali u jannatga tushadi [Ostanov 1991; 71].

Quyida Sh. Imyaminova tomonidan amalga oshirilgan bevosita tarjimalar xususida to'xtalmoqchimiz. “Alisher Navoiy hikoyatlari. (Hikojats von Alischer Navoi) – O'zbek xalq ertaklari, (Usbekische Volksmärchen) – O'tkir Xoshimov. Urushning so'ngi qurboni. (Ötkir Hoschimov. Das letzte Kriegsopfer)” nomli to'plamda tarjimonning Alisher Navoiy hayotiga oid oltita hikoyat tarjimasi berilgan. Mutarjim hikoyatlarni tarjima qilishda “es lebte einmal ..., es gab einmal ..., es war ein ...” kabi so'zlar orqali rivoyatlarga xos usuldan foydalangan.

Odatda gapiruvchi ism va laqablar odatda uch xil usulda tarjima qilinadi:

- a) transformatsiya;
- b) transkripsiya;
- v) tarjima qilish.

Sh. Imyaminova tarjimasida asosan transkripsiya usulidan foydalanilgan. Masalan, “*Shawhariy*”, “*Derwisch*”, “*Hirka*” kabi [Имьяминова 2013; 7].

Bizningcha, bu ismlar transliteratsiya qilinganida maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu albatta asliyat mazmunini yanada chuqurroq anglashga yordam bergan bo'lardi.

Xulosa qilib aytganimizda, har qanday tildagi leksik elementlar ichida frazeologik birliklarni va hikmatli so'zlarni tarjima tilida qayta yaratish mutarjim oldida birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Turg'un so'z birikmalarini tarjima qilish jarayonida, o'sha birikmaning funksional ma'nosini hamda uslubiy rangdorligini e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, so'zning uslubiy nozik ma'nosini berishda, ya'ni frazeologik oborotlarni tarjima tilida qayta yaratishda e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Quyida Hazrat Mir Alisher Navoiy haqida o'zbek xalq rivoyatlari – El desa Navoiyni nomli rivoyatlar to'plami kitobidan olingan ayrim rivoyatlarning

nemis tiliga tarjimalari xususida ayrim tahlillarni keltirib o'tmoqchimiz. Zero, dissertatsiyamizning asosiy maqsadi va amaliy qismi tarjima tahlili hisoblanadi.

Rivoyatlarni tarjima qilish jarayonida bizga anchagina qiyinchiliklar tug'dirgan masala bu ulardagi milliy mentalitetga xos bo'lgan realiyalar, iboralar, maqollar, aforizmlar va boshqalar tarjimasi bo'ldi. Masalan; "Dono savdogar" nomli rivoyat tarjimasidan olingan quyidagi tahlilga e'tibor bering:

Qiyoslang: Asliyatda:

Alisher Navoiy o'zini ko'tarib katta qilgan, otasining cho'ponini darrov tanibdi. CHol ham uni tanib:

Tushummi, o'ngimmi? – deb ko'rishibdi. Darrov belbog'ini yozib nonu sut bilan mehmon qilibdi.

Tarjimasi:

Er kannte sofort seinen geneigten Erzieher. Er war der offenherzige Hirt seines Vaters. Der alte Hirt kannte auch Alischer und er war voller Freude um das Treffen mit Alischer. Unverzüglich bedeckte der Greis sein Taillentuch auf der Weise und bewirtete ihn mit Essen und Trinken.

Asliyatdagi birinchi gapda "ko'tarib katta qilmoq" iborasi ishlatilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu iborada o'zbekona milliy urf odatlar, sharqona kundalik hayot tarzi ko'rinib turibdi. Zero, yosh bolalarni ko'pincha bobolarimiz o'z nevaralarini elkasida ko'tarib yurgan holatni kuzatishimiz mumkin.

Sundan kelib chiqib, bu iboraning umumiy ma'nosi "mehr bilan bola tarbiyalamoq" yoki "katta qilmoq" degan ma'noni beradi. SHuning uchun biz bu iborani „geneigter Erzieher“– “mehribon tarbiyachi” birikmasi orqali tasvirlash usuli orqali tarjimasini amalga oshirdik.

3.2. Tarjimada transformatsiyalarga doir.

Quyida ayrim o'zbek xalq rivoyatlarining bevosita nemis tiliga tarjimalari va ulardagi transformatsiyalar xususida to'xtalmoqchimiz.

Transformatsiyaning bir turi "qayta qurish"dir. O'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilishda gap bo'laklarining o'rni almashadi va bunday hodisa tarjima jarayonida ko'p uchraydi. Chunki o'zbek va nemis tilidagi gaplarning so'z tartibi bir xil emas. Masalan:

“ – *Tog'day og'ir gunohlar bilan qushday engil yurganimning o'zi mo'jiza emasmi?*” [www.kitob.uz/view_data.php]

Tarjimasi:

“ – *Ist das kein Wunder, dass ich mich trotz meiner Sünden, die schwer wie Berge auf meinen beiden Schultern lasten, so leicht bewegen kann?*” [Ostonov 2014;58].

Nemis tilida bu gap to'rt bo'lakli ergash gapga aylanmoqda va so'roq so'zsiz so'roq gap tarjimada bosh gap bo'lib, “*Ist das kein Wunder, ...?*” birinchi o'rinda kelmoqda. Shuningdek, aslyatda esa odatdagidek so'roq so'z “... emasmi?” gap oxirida kelmoqda. Aslyatdagi “qushday engil” iborasi esa tarjimada tushirib qoldirilmoqda. Lekin bu rivoyat mazmunini berishga putur etkazmagan. Bu gapda asosiy informatsiya uning gunohlari ko'pligiga qaramasdan u bemalol xarakatlana olayotganligidir. O'zbek tilida asosan diqqat markazidagi axborot gapning oxiriga, ikkinchi darajali ma'lumotlar (vaqt, xil-xususiyat) gapning boshiga joylashtiriladi. Tarjimon birinchi navbatda diqqat markazidagi ma'lumot qaysi ekanligini aniqlab, shunga asosan tarjimada gap strukturasini qayta quradi.

Shu rivoyatda tarjimon qo'shish usulini ham amalga oshirgan. Birinchi misolda: “*auf meinen beiden Schultern lasten,*” bu so'z birikmasini so'zma-so'z tarjima qilsak – “ikki elkamdan bosib turgan” degan ma'noni beradi. Shu holatdagina aslyatdagi ma'no to'g'ri berilgan bo'ladi. Agar bu so'z birikmasini ibora (frazologik birikma) deb oladigan bo'lsak, tarjimada gap ma'nosi butunlay o'zgaradi. Ya'ni bu “*etwas lasten auf jemandes Schultern*” iborasining

ma'nosi: "biror bir og'ir mas'uliyatni, javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq" dir. Asliyatda esa gunohlarning ko'pligi nazarda tutilgan.

Almashtirish usulini tarjimada qo'llashdan maqsad sodda va ravon nutqni shakllantirish va asliyat maqsadini oydinlashtirishdir. Bu usulda matndagi otlar tarjimada olmoshga yoki fe'lga almashishi, shuningdek shaxsi noma'lum gap shaxsi ma'lum gapga aylanishi mumkin. Masalan: yuqorida fikr yuritilgan rivoyat shunday boshlanadi;

Asliyatda:

"Bahovuddin Naqshbanddan so'rashibdi:

- Bir mo'jiza ko'rsatsangiz?" [www.kitob.uz/view_data.php]

Gapning birinchi qismi shaxsi noma'lum gap.

Tarjimada:

" Einer der Anhänger bat den Sufimeister Bahowuddin Nakschbandiy, ihm ein Wunder zu zeigen" [Ostonov 2014; 58].

Tarjimada mutarjim shaxsi nomalum gapni shaxsi ma'lum gapga aylantirmoqda va ifodani konkretlashtirish maqsadida gap egasi "Einer der Anhänger" – (maslakdoshlaridan biri) ni o'zidan qo'shmoqda.

Tushirib qoldirish qo'shish metodiga teskri usul bo'lib, tarjima asliyatdagi qo'shma sinonimlardan biri, ikkita bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlardan birining tushib qolishidir.

Masalan:

" – Tog'day og'ir gunohlar bilan qushday yengil yurganimning o'zi mo'jiza emasmi?" [www.kitob.uz/view_data.php].

Bu misoldagi "qushday engil" iborasidagi "qushday" so'zi tarjimada tushirib qoldirilgan va birgina "leicht" – "engil" so'zi orqali berilgan.

Ba'zida bir asar tarjimasida tarjima transformatsiyalari qo'shaloq uchrashi mumkin. Bunday holat kompleks transformatsiya deb ataladi. Yana xuddi shu asardan misol keltiramiz. Masalan:

Asliyatda:

- *Hayronman, yo mening o'rnim sal yuqoriga ko'tarilgan, yo osmon sal pastroqqa tushib, yerga yaqinlashganday ko'rinadi.* [www.kitob.uz/view_data.php].

Tarjimada:

- *Irgendetwas hat sich hier verändert! Entweder bin ich ein bisschen gewachsen oder die Decke ist niedriger geworden.* [Ostonov 2014; 56].

Ko'rib turganingizdek, "Irgendetwas hat sich hier verändert!" - (bu yerda nimadir o'zgargan) jumlasini tarjimon o'zidan qo'shgan. Lekin asliyatdagi "hayronman" so'zi tarjimada tushrib qoldirilgan. Keyingi gapda esa mutarjim almashtirishni ustalik bilan amalga oshirgan. Asliyatda uning o'rni sal yuqoriga ko'tarilgan, yo osmon sal pastroqqa tushib, yerga yaqinlashgan bo'lsa, tarjimada uning bo'yi sal o'sgan yoki xona shifti sal pastlashgan. Bu qo'shish va tushirib qoldirishlar asliyat ma'nosiga hech qanday putur etkazmagan, aksincha uning ma'nosini kengroq ochib berishga xizmat qilgan. Zero, bu yerda asosiy maqsad qaxramonning ya'ni Ibn Sinoning sezgirligini ko'rsatib berishdir.

Bundan tashqari bu rivoyat tarjimasida mutarjim yana bir qancha almashtirishlarni amalga oshirgan. Masalan: biz tomonimizdan dissertatsiyaning obykti sifatida tanlab olingan bu rivoyatning Ergash Ochilov tomonidan to'plangan kitobdagi variantida Buxoro amiri Ibn Sinoning uyida u bilan suhbatlashib o'tirib uni sinab ko'rmoqchi bo'ladi. U xizmatchilargi Ibn Sino o'tiradigan kursining to'rtta oyog'i tagiga to'rtta tanga joylashtirib qo'yishni buyuradi. Ibn Sino uyga kirib, o'z o'rniga o'tiradi va hayron bo'lib, "... yo mening o'rnim sal yuqoriga ko'tarilgan, yo osmon sal pastroqqa tushib, yerga yaqinlashganday ko'rinadi" deydi.

O.Ostanov tarjimasida esa voqea Ibn Sino va uning shogirdlari davrasida sodir bo'ladi. Uning kursisi tagiga esa tanga emas, balki qog'oz parchasi shogirdlari tomonidan qo'yiladi.

Endi "*Bevaqt arz-dod bilan kelgan kim bo'ldi?*" nomli rivoyat tarjimasida ustida ayrim tahlillarga e'tibor bering. Bu rivoyat tarjimasida mutarjim asosan izohlash (transliteratsiya) va almashtirish usullaridan keng foydlangan. Masalan,

rivoyatning nomlanishi ham butunlay almashtirilgan, ya'ni, *“Die Klage des Esels”* (eshakning shikoyati) deb nomlangan. Chunki aslida ham *“bevaqt arz dod bilan kelgan”* bu – eshak. Rivoyat nihoyasidagi quyidagi abzats tarjimasiga to'xtalamiz.

Asliyatda:

“Sen betavfiq eshak yosh va kuchli paytida undan naflanding. U sening tirikchiligiga yaradi. Endi keksayib kuchdan qolganda quvib chiqarganing nimasi? “Eshakning kuchi halolu o'zi harom” deb senga kim aytdi?”

Tarjimada:

“Du Skrupelloser! Als der Esel jung und kräftig war, hast du ihn ausgenutzt. Dank seiner Hilfe hast du deine Familie ernährt. Nun ist er alt und kraftlos geworden und du hast ihn aus dem Haus getrieben. Ist das Tier nur zu respektieren, solange es genügend Kraft für die Arbeit hat?”

Birinchi gap ko'rib turganingizdek, deyarli so'zma-so'z tarjima qilingan. Ikkinchi gap esa (U sening tirikchiligiga yaradi) tarjimada tasvirlash yo'li bilan berilgan.

Asliyatda: *U sening tirikchiligiga yaradi.*

“Dank seiner Hilfe hast du deine Familie ernährt”.

Tarjimasi – *Uning yordami bilan sen o'z oilangni boqding.* Asliyatdagi *“tirikchiligiga yaramoq”* iborasini mutarjim *“seine Familie ernähren”* (o'z oilasini boqmoq) deb o'girmoqda. Keyingi jumla ham so'zma-so'z tarjima qilinmoqda, undan keyingi jumla esa *“Eshakning kuchi halolu o'zi harom”* maqoli ham izohlash yo'li bilan tarjima qilinmoqda:

“Ist das Tier nur zu respektieren, solange es genügend Kraft für die Arbeit hat?”

Tarjimasi; *Hayvon ish uchun etarlicha kuchi borligidagina qadrlanadi.* Tarjimada umumlashtirish amalga oshirilmoqda, ya'ni asliyatdagi eshak tarjimada das Tier – hayvonga aylanmoqda.

Rivoyatlardagi realiyalar – milliy so'zlarni tarjima qilishda O. Ostonov asosan **transliteratsiya, izohlash usulidan** foydalangan. Masalan;

Kadi – ist in den islamischen Ländern ein Richter, der an der Spitze der Gerichtsbarkeit der Scharia steht. [Ostonov 2014; 150]–islomiy davlatlarda shariat qonunlariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi qozi.

Medrese – auch: Madrasa. Dieses Wort stammt aus dem Arabischen und bedeutet Schule. Die Übersetzung lautet “Ort des Lernens”. Im Westen wird das Wort mit der Koranschule gleichgesetzt. [Ostonov 2014; 151] – arab tilidan kelib chiqqan bo’lib maktab ma’nosini beradi. Tarjimasi “ta’lim maskani”. G’arbda bu so’z islomiy maktabga tenglashtiriladi.

Omil – Amtsperson, die dem Wesir unterstand und sich um die Steuern kümmerte. Der Omil konnte auch zum Oberhaupt eines Gebiets befördert werden [Ostonov 2014; 151] – vazirdan quyida turuvchi va soliq ishlariga javobgar mansabdor shaxs. Omil biror viloyatning rahbari ham bo’lishi mumkin.

Plov – die usbekische Variante des orientalischen Reisgerichts Pilaw, das wichtigste Gericht in der Landesküche. Es enthält in der Hauptsache gebratenes oder gekochtes Fleisch, Zwiebeln, Karotten und Reis. In den Abwandlungen werden Rosinen, Berberitzen und Kichererbsen oder Früchte dazugegeben. Bei Feierlichkeiten oder besonderen Festen, wie z.B. Hochzeiten, wird in Usbekistan immer das Nationalgericht Plov zubereitet. [Ostonov 2014; 152] – sharq mamlakatlariga xos bo’lgan guruchli taomlar (palov)ning o’zbekona turi, qishloq oshxonasining asosiy taomi.

Oybek Ostonov rivoyatlar tarjimasida xos so’zlarni, asosan, transliteratsiya usulidan foydalangan holda tarjima qilib, katta yutuqqa erishgan. Lekin so’zlarga berilgan izohlarni kitobning orqa tomonida emas, balki shu so’zning ënida qavs ichida berilsa, o’quvchiga biroz qulaylik yaratilgan bo’lar edi. Dostonda keltirilgan realiyalar tarjimalarida ma’lum bir kamchiliklarga ham yo’l qo’yilgan. Masalan;

Tarjimon rivoyatlarni tarjima qilishda ularning ruscha variantlariga ham murojaat qilgan bo’lishi mumkin degan fikr tug’iladi. Fikrimiz isboti sifatida yuqoridagi misolga, “**Plov**” realiyasining izohini tahlil qilmoqchimiz. O’zbek tilida bu so’z “palov” bo’ladi. Rus tilida esa “plov” deyiladi. Bizningcha bu so’z

ham (*Omil, Kadi, Medrese kabi*) tarjimada o'z holicha "Palow"deb transformatsiya va transliteratsiya qilinganda maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa o'rnida rivoyatlarning nemis tiliga qilingan tarjimasidagi ayrim chekinishlar nemis tili qonuniyatlari asosida asliyatning ma'no va mazmuninigina emas, balki uning epik uslubi, obrazlar silsilasi va emotsional ruhini saqlash imkonini bergan.

Tarjimon O. Ostonov rivoyatlarni mahorat bilan olmon tiliga o'girishga erishgan, desak, mubolag'a bo'lmas. O'zbek xalq rivoyatlarini G'arb o'quvchilariga shu darajada etkazib bera olgan mutarjimning mehnatlari alohida tahsinga loyiqdir.

XULOSA

Germaniyada o'zbekshunoslik tarixini o'rganar ekanmiz, o'zbek adabiyotiga, aynan xalq og'zaki ijodiga qiziqish XVI asrda boshlangan va hozirgi kunga kelib bir qancha ilmiy tadqiqotlar va tarjimalar qilingan. Berlining Gumbold va Mayns universitetlarida o'zbek tilini alohida fan sifatida o'rganadigan bo'limlarning hozirgi kundagi faoliyati ham o'rganildi. Ularda bir qancha fan doktorlari va boshqa quyi darajadagi mutaxassislar, hamda talabalar o'zbek tilini, Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarining adabiy merosini o'rganib bu sohada ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Masalan, professor Baldaufning ilmiy izlanishlari nafaqat O'zbekistonlik o'zbeklar, balki shimoliy Afg'oniston va Markaziy Osiyoning barcha millat va elatlarining adabiyoti, tili, tarixi va urf-odatlarini to'g'risidadir. Demak, Germaniyada o'zbek tili va adabiyotini o'rganish, ularni nemis tiliga tarjima qilish, aynan xalq og'zaki ijodini o'rganish va tarjima qilish jarayonini yaxshi baholash mumkin. Zero, bir qator o'zbek adabiyoti namunalari, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari o'rganilib, tarjima qilingan va ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin afsuski, O'zbekistonda har yili yuzlab talabalar nemis tilini asosiy fan sifatida o'rganayotganiga qaramasdan, o'zbek xalq og'zaki ijodini nemis tiliga tarjima qilish ancha sust. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ya'ni sohaning yangiligini hisobga olib, ushbu ishda nemis va o'zbek olimlarining o'zbek xalq rivoyatlarini nemis tiliga tarjima qilish borasidagi ishlari o'rganib chiqildi.

Shuningdek, o'zbek xalq rivoyatlarining nemis tiliga o'girilishi tarixi, tarjimalarning lingvostilistik muammolarifilologiyaning yangi sohalaridan bo'lib, uning tadqiqot obyekti o'zbek xalq rivoyatlari, ularning nemis tiliga tarjimalari va bu borada qilingan ilmiy tahliliy ishlar bo'lib hisoblanadi.

Tarjimalarda lingvistik stilistika va adabiyotshunoslik stilistikasiga oid fikr-mulohazalar, nazariy masalalar xususida, tarjima va tarjimonning individual uslubi tadqiq etildi. Tarjima jarayonida muqobillikka erishish uchun tarjimondan ma'lum bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi; aslyat muallifining shaxsiy hayoti

va tarjimai holi, asliyat yozilgan davrdagi ijtimoiy-iyosiy ahvol, muallifning ijodiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillar, asliyat muallifi mansub bo'lgan xalq mentaliteti va qadriyatlari, uning ijodkor sifatidagi individual uslubi qirralari.

Tadqiqot ishining amaliy qismi sifatida tanlab olingan ayrim o'zbek xalq rivoyatlarining nemis tiliga tarjimalarini lingvostilistik tahlil qildik. Rivoyatlar xalq og'zaki ijodidir va shuning uchun ularning asliyat variantlari bir nechta bo'lishi mumkin. Bu tarjimalarni tahlil qilish o'ziga yarasha qiyinchiliklar tug'dirdi va uning ustida chuqurroq ishlashga undadi.

Masalan, Abu Ali Ibn Sino haqida rivoyatlar to'plamidan, Bo'riboy Axmedovning "Ajdodlar o'giti" nomli hikoyat va rivoyatlar to'plamidan, Muhammad Avfiyning "Nodir hikoyalar" to'plamidan saralab olingan ayrim rivoyatlarning O. Ostanov tomonidan nemis tiliga bevosita tarjimalarini va SH. Imyaminova tomonidan tarjima qilingan Alisher Navoiy haqidagi hikoyatlarni lingvostilistik jihatdan tahlil qildik. O. Ostanov tomonidan amalga oshirilgan tarjima matnlari mazmunan rivoyatlarga xos jozibadorligi va ta'sirchanligi bilan sodda va tushunarli tilda bayon qilingan. Tarjima jarayonida turli uslubiy vositalardan, frazeologik birliklardan, maqollardan unumli foydalangan. Mutarjim rivoyatlar matnidagi milliy mintalitetga xos belgilarni (realialarni) berishda ham ma'lum darajada yuto'qqa erishgan. Realialar, tarixiy so'zlar kabi tarjima jarayonida izoh talab qiladigan so'zlarga to'plam oxirida izohlar berilgan. Mutarjim realialarni berishda tarjimaning transliteratsiya usulidan foydalangan va bu orqali rivoyat matnidagi milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan. Asliyat matnini tarjima matni bilan muqoyasa qilar ekanmiz, mutarjimning har ikkala tilni mukammal bilishini sezishimiz mumkin. Rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, uslubi hamda matndagi har bir so'z va ibora mutarjim nazaridan chetda qolmaganligi, asliyatga mos so'z va iboralar tanlay olganligining guvohi bo'lamiz. Buni albatta mutarjimning erishgan yutug'i deyishimiz mumkin.

O'z o'rnida tarjimalar ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Masalan, kitob sarlavhasiga e'tibor bering. "Geschichten entlang der Seidenstraße –

Weisheiten des Orients” bu yerda “die Geschichte” so’zi “sarguzasht”, butun sarlavha esa “Ipak yo’li bo’ylab sarguzashtlar – Sharq donishmandliklari” deb tarjima qilinadi. Bizningcha bu yerda “Große” – ya’ni, “buyuk” so’zi etishmayapti. Shunda tarjimaning qiymati balki, yanada oshardi.

Yana bir tarjimon Shuhratxon Imyaminova tomonidan amalga oshirilgan bevosita tarjimalar, “Alisher Navoiy hikoyatlari. (Hikojats von Alischer Navoi) xususida xulosa qiladigan bo’lsak, mutarjim rivoyatlarga xos sodda va ravon tilda tarjimani amalga oshirgan. Tarjimalar rivoyatlarga xos uslubda, *es gab einmal ..., es lebte einmal ..., es war ein ...*kabi kirish so’zlari bilan boshlangan.

Rivoyatlar maqollar, idiomalar, frazemalar va ibratli so’zlardan tashqari realiyalar va mentalitetga oid boshqa unsurlarga boy bo’ladi. Ularda kishilar o’zlarining kundalik turmushlarini ko’rib turganliklari uchun ham, ular xalq orasida mashhur bo’ladi. Bugungi kunda, biz o’z madaniyatimizni jahonga tanitishni maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, shu kabi milliy mentalitetimizni aks ettirib turgan rivoyatlarning sifatli tarjimasini yo’lga qo’yishimiz lozim. Buning uchun, xususan, milliy kolorit va xarakterga ega bo’lgan so’z va iboralar lo’g’atlarining yaratilishi, o’zbek va nemis adabiyoti qiyosiy tahlil qilinib, bir-biriga ekvivalent bo’la oladigan madaniyat ko’rsatkichlari tizimini yaratish juda muhimdir. Albatta, bu juda ko’p mehnatni talab qiladi, ammo shu vazifa amalga oshirilsa, tarjimonlar uchun bu kabi birliklarga boy asarlarni tarjima qilish jarayoni nisbatan bir muncha engillashardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. -T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. -108 b.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Чет тилларни ўқитиш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” 2012 йил 10 декабрдаги ПҚ-1875-сонли Қарори. “Халқ сўзи” газетаси. 11.12.2012 йил, 240(5660) -сони.
3. Абдуллаева Р. Фан ҳақида суҳбатлар (Шиллер адабий мероси Ўзбекистонда). № 34 – Т.: “Ўзбекистон”, 1984. – 24 б.
4. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981. – 97 б.
5. Аникин Ю. Теория фольклора // Курс лекций. –М.: Университет, 2004. – 431 с.
6. Аристов Н.Б. Основы перевода. –М.: Литературы на иностранных языков, 1959. – 263 с.
7. Бадий таржиманинг актуал масалалари. Коллектив. –Т.: Фан, 1977. – 228 б.
8. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М., 1975. – 240 с.
9. Брандес М.П. Стилистика немецкого языка. – М.: Высш. школа, 1990. -320 с.
10. Гончарова Е.А. Пути лингвостилистического выражения категорий автор-персонаж в художественном тексте. -Томск: Изд-во ТГУ, 1984. -149 с.
11. Гусев В.Е. Эстетика фольклора. – Л.: Наука, 1967. - 317 с.
12. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – 184 б.
13. Жўраев М. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. - Т.: Фан, 2001. – 133 б.
14. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки прозаси. - Т.: Фан, 1981. – 16 б.
15. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол. фан. докт. дисс. – Т., 1998. – 120 б.

16. Комиссаров В. Теория перевода. - М., 1990. IV глава, -71с.
17. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988. -192 с.
18. Кухаренко В.А. Практикум по интерпретации текста. – М.: Просвещение, 1987. -176 с.
19. Кўчибоев А. Билвосита ва бевосита таржима таҳлили // Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2006. – 85 б.
20. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 180 б.
21. Латышев Л.К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. – М.: Просвещение, 1988. -160 с.
22. Лосева Л. М. Как строится текст. -М., 1980. – 94 с.
23. Мирзаев Т., Мусоқулов А. Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: Шарқ, 2003. –508 б.
24. Нурмуродов Й. Ўзбек фольклори олмон тилида. – Т.: Фан, 1987. – 210 б.
25. Поповская (Лисоченко) Л.В. Лингвистический анализ художественного текста в вузе. Учеб. пособ. для студ. филол. фак-тов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2006. - 512 с.
26. Рецкер Я. Теория перевода и переводческая практика. –М., 2010. –244 с.
27. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966 – 382 б.
28. Самарқандда хорижий филология: кеча, бугун ва эрта // Рисола. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2014. -108 б.
29. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 166 б.
30. Тўрабекова С. Тил ва услуб (Ғафур Ғулом поэмалари асосида) -Т.: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёти, 1963. – 100 б.
31. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 221 б.
32. Федоров А. В. Введение в теорию перевода (Лингвистические проблемы), - М., 1958. - 169 с.

33. Фозилова Ш.З, Султонова Д.А. Таржима мутахассислигига кириш // Маърузалар матни. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 41б.
34. Фозилова Ш.З. Таржима мутахассислигига кириш // Маърузалар матни. Самарқанд, СамДЧТИ, 2007. – 41 б.
35. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изохли луғати. –Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1985. – 144 б.
36. Albrecht Jörn. Literarische Übersetzung: Geschichte, Theorie, Kulturelle Wirkung. – Darmstadt: Wiss. Buchges., 1998. – 295 S.
37. Best Joanna, Kalina Sylvia. Übersetzen und Dolmetschen. – Basel: Francke, 2002. – 335 S.
38. Fleischer, Wolfgang. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1969. – 327 S.
39. Kellner Heinkele B., Kleinmichel S. Mir Alischer Navai. -Würzburg, 2003. -140 S.
40. Kleinmichel S. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. –Wiesbaden, 1993. -279 S.
41. Kleinmichel S. Die Geburt des Propheten Muhammad (Drei Dichtungen aus Mittelasiien). –Wiesbaden: Reichert Verlag, 2009 – 346 S.
42. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи.–Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1970. – 302 б.
43. Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Т., 2010. – 113 б.

Dissertatsiya va ilmiy maqolalar

44. Абдулаева А. Фразеологизмнинг экспрессивлик хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти, 1976, 5-сон. -36-39 бетлар.
45. Абдуллаева Р. Адабий алоқалар типологияси (Германия туркийшунослиги мисолида) // Ўзбек адабиёти (Таъсир ва типология). – Т.: Муҳаррир, 2013. – 94-107 бетлар.
46. Абдуллаева Р. З. Клайнмихелнинг “Навоий бенаво” мақоласини ўқиб // Навоий адабиёти. ГулДУ, 2011. – 70-77 бетлар.

47. Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номзоди. ... дис. –Т.: 2008. – 117 б.
48. Боймирзаева С.Ў. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи, НДА. – Самарқанд: 2004. – 23 б.
49. Галеева Н.Л. Параметры художественного текста и перевод. -Тверь: Изд-во Тверского Государственного Университета, 1999. -154 с.
50. Ганиев В. Сопротивление оригинала как закономерность процесса перевода // Литература и перевод: проблемы теории. М., 1992. -С. 361-368.
51. Гарбовский Н.К. Теория перевода. –М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004. - 542 с.
52. Жирмунский В.М. Опыт стилистической интерпретации стихотворений Гете // Вопросы германской филологии. Вып. II. -Л.: Изд-во ЛГУ, 1969. - С. -39-62.
53. Капкова С.Ю. Лингвостилистические средства выражения комического и эксцентрического в языке современной детской английской литературы и специфика их перевода на русский язык: дис. канд. филолог, наук. - Воронеж, 2006. -167 с.
54. Кристалл Д., Стилистический анализ // Новое в зарубежной лингвистике. -М.: Прогресс, 1980. - С. 148-171.
55. Лопатин В.В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. – М.: Наука, 1973. – 64 с.
56. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фан. док. дисс. – Т., 1991. – 207 б.
57. Медриш Д.Н. Литература и фольклорная традиция. Вопросы поэтики // Под ред. Б.Ф. Егорова. -Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 1980. -296 с.
58. Медриш Д.Н. Структура художественного времени в фольклоре и литературе // Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. Сб.

- статей. Ред. Кол. Б.Ф. Егоров (отв. ред.) и др. -Л.: Наука, 1974. -С. 121-142.
59. Нормуродов Э. Мақол, матал ва идиоматик бирликлар таржимасининг баъзи масалалари // Бадиий таржиманинг актуал масалалари. –Т.: Фан, 1977. – 63 б.
60. Рябов Г.П. Переводческая норма и оценка переводов // Информационно-коммуникативные аспекты перевода, - Новгород, 1991. - С. 99-106.
61. Самадов Қ. Ойбек тил маҳоратининг баъзи масалалари: Филол. фан. док. дисс. –Т., 1967. – 140 б.
62. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. Фан. докт. дисс. –Т., 1998. -128 б.
63. Холбеков М. Таржима назариясининг лингвистик принциплари (1980 -2000 йиллар) //Филология масалалари, 2009. 1-сон, 49-53-бетлар.
64. Шпетный К.М. Лингвостилистические и структурно-композиционные особенности текста короткого рассказа (на материале американской литературы): Автореф. дис. . канд. филол. наук. -М.,1980. 23 с.
65. Саломов Ғ. Таржимада таҳлил ва таҳрир // Шарқ юлдузи. – Т., 1973. 8-сон, 35-47 бетлар.

Badiiy adabiyotlar

66. Абдуллаева Р. Шиллер ва ўзбек адабиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2012. – 211 б.
67. Абдуллаева Р. Танишув – Kennenlernen. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 86 б.
68. Алишер Навоий ҳикоятлари – Hikojats von Alischer Navoi, Ўзбек халқ эртаклари – Usbekische Volksmärchen, Ўткир Хошимов – Урушнинг сўнги қурбони – Ötkir Hoshimov – Das letzte Kriegsoffer. Масъул муҳаррирлар: Ияминаова Ш. ва б. - Т.: Мумтоз сўз, 2013 – 86 б.
69. Асотирлар ва ривоятлар. I китоб. – Т.: Фан, 1990. – 44 б.
70. Аҳмедов Б. Аждодлар ўғити. – Т.: “Чўлпон”, 1991. – 230 б.
71. “Ёшлик” журнали. 2013 йил 12-сон; 9-14 бетлар.

72. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Т.: Фан, 1995.– 108 б.
73. Ипак йўли афсоналари. - Т.: Фан, 1993. – 128 б.
74. Нодир хикоялар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Авфий Муҳаммад, форс тилидан И. Низомиддинов ва Файзиев Т. таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. -204 б.
75. Остонов О. Geschichten entlang der Seidenstraße – Weisheiten des Orients, - Т.: Академнашр, 2014. – 160 б.
76. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – 186 б.
77. Эл деса Навоийни (Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар) Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи М. Жўраев. – Т.: “Чўлпон”, 1991. – 160 б.
78. Erika Taube. Usbeken aus den Jahren 1928-1930. -Wiesbaden: Harrassowitz 1995. – 244 S.
79. Märchen aus Usbekistan und Tibet herausgegeben von Gustav Jungbauer. - Jena, 1923. - S. 380
80. Vambery H. Jusuf und Ahmad. -Budapest, 1911. -450 б.

Lug’atlar

81. Абдуллаева Р. Қисқартмаларнинг немисча-русча-ўзбекча луғати. – Т.: Фан, 2009. – 199 б.
82. Русско-узбекский словарь: В 2-х томах.Том I. Главная редакция УзСЭ, -Т., 1983. – 808 с.
83. Русско-узбекский словарь: В 2-х томах.Том II. Главная редакция УзСЭ, -Т., 1984. – 800 с.
84. Русско-немецкий словарь (основной): под ред. К. Лейна. – М.: 1989. – 736 с.
85. Узбекско-русский словарь.– Т.: Главная редакция УзСЭ, 1988. – 726 с.
86. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, -Berlin und München. 2010. - S.1343

Internet sahifalari

87. <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=6>
88. <http://aql.uz/articles.php?cat=24>
89. http://kitob.uz/view_data.php
90. <http://www.worklib.ru/dic/вамбери-герман>
91. http://dic.academic.ru/dic.nsf/brokgauz_efron
92. <http://www.amazon.de/Die-Liebenden-Taschkent-Barno-Aripova/dp/>
93. <http://www.amazon.co.uk/Books-Sigrid-Kleinmichel>
94. <http://www.geschkult.fu-berlin.de/e/turkologie/institut/mitarbeiter/Pensioniert/kellner-heinkele.html>
95. <https://www2.hu-berlin.de/zentralasien/?section=anor>
96. <http://sirojiddinov.blogspot.com/2011/11/blog-post.html>
97. <http://cheloveknauka.com/v/61952/a?#?page=13>

**Ilova. Mir Alisher Navoiy haqidagi ayrim rivoyatlarning o'zbek tilidan
nemis tiliga bevosita tarjimalari (shaxsiy tarjimalar)**

(Asliyat matnlari kiril alifbosida bo'lganligi uchun ularni o'z holicha qoldirdik)

АЛИШЕР БИЛАН БУЛБУЛ

Илгари замонда Гиёсиддин кичкина деган кишининг Алишер исмли ўғли бўлган экан. У ёшлигидан уддабурро, зийрак бўлиб ўсибди. Тўққиз ёшга тўлганда эса шеърлар ёза бошлабди. Одамлар у ёзган шеърларни кулоқ бериб тинглайдиган бўлишибди. Лекин бола ўзига ҳали тахаллус танламаган экан.

Алишер бир куни янги шеърини ёзибди-да, уни боққа чиқиб баланд овоз билан ўқий бошлабди. Шу пайт боғдаги теракка чирмашган қирқ оғайнининг шоҳида ўтирган булбул Алишернинг ёқимли овозини эшитиб қолибди. Қушча дарҳол унинг елкасига қўниб: - Эй, хушовоз шоир, сен ўқиган шеърлар булбулларнинг эрта тонгдаги навосидан ҳам ёқимли экан. Номингни билсам бўладими? –дебди.

- Алишер! –жавоб берибди бола.

- Билдим, билдим, янги чиққан шоир экансан-да. Энди ўзинга чиройли бир тахаллус танлаб, шеърларингнинг охирига ўшани қўшиб кетгин.

Алишерга булбулнинг бояги “наво” деган сўзи ёқиб қолибди. Шундан кейин ёзган ғазалларининг тагига “Навоий” деб ёзиб қўядиган бўлибди[“Эл деса Навоийни” 1991;4].

ALISCHER UND DIE NACHTIGALL

Im Altertum lebte ein Dichter und Schriftsteller mit Namen Alisher Navoiy. Sein Vater hieß Giyosiddin Kichkina. Von Kindheit an wuchs er behänd und scharfsinnig. Mit neuen Jahren begann er Gedichte zu schreiben. Und seine Gedichte hörte man mit Vergnügen. Aber, er hatte kein Pseudonym noch. Eines Tages hatte Alisher ein neues Gedicht geschrieben, und begann im Garten vorzulesen. In dieser Zeit plötzlich hörte eine auf dem Baumzweig

sitzende Nachtigall seine schöne Stimme. Die klangvolle Stimme des jungen Dichters wie Glockenstimme und sanft wie Brise bezauberte die Nachtigall. Plötzlich sagte die Nachtigall, nachdem sie sich auf Alishers Schulter aufgesetzt hatte: —Hey, wohl klangvoller Dichter, dein Gedicht ist so reizvoll als den frühmorgigen Gesang der Nachtigallen, ich glaube nicht meine Ohren. Wie ist dein Name?

— Alisher! — antwortete das Kind.

— So, dann ich kenne dich. Du bist ein neuer Dichter. Dann, nimm Dir ein schönes Pseudonym an, und füge es immer unter deine Gedichte hinzu.

Alisher gefiel das Wort „Gesang“(navo), das die Nachtigall gesagt hatte. Danach schrieb Alisher seine Gedichte unter den Pseudonym „Navoiy“.

БОШ ВА ҚИЛИЧ

Алишер Навоий билан Ҳусайин Бойқаро ёшлигидан жуда қалин дўст бўлганлар, мактабда ҳам бирга ўқиганлар. Уларнинг домласи ғоят ўткир зеҳнли киши экан.

У киши бир куни шогирдларининг зеҳнини, нимага қизиқишларини билмоқчи бўлибди. Ҳар иккаласига бош ва қилич расмини чизиб берибди-да, шарҳ ёзиб келишларини топширибди.

Алишер бош ва ақлни, доноликни таърифлаб ғазал битиб келибди. Ҳусайин бўлса қиличга ҳамду санолар айтиб, жангу жадал ҳақида мадҳия ёзибди.

Домла шарҳларни ўқибди-да, осмонга қараб чарақлаган қуёшни Алишерга, қора булутни эса Ҳусайин Мирзога кўрсатиб, Алишерга: “Офарин!” – дебди.

Ҳусайин Мирзога эса индамабди. Бундан ажабланган Ҳусайин Мирзо домла мени тақдирлашни унутди чоғи деб ўйлаб устозидан ўз “мукофотини” сўрабди. Домла шахзодага ўараб: “Сизга водариғ” мукофоти ёзилган экан”, - дебди.

Алишер ўз мукофотининг мазмунига тушуниб боши кўкка етибди.
Хусайин Мирзо бўлса “мукофот” сирини тушуна олмабди.

Бош ва қилич расмида: Бош ақл рамзи бўлиб, инсонларга хизмат қилади. Қилич эса ақлга қарши туриб, бошга “водариғ” кулфатини солади дейилган экан [“Эл деса Навоийни” 1991;4].

DER KOPF UND DAS SCHWERT

Von Kindheit an waren Alisher und Husain Boykaro enge Freunde. Sie besuchten immer in die Schule zusammen. Sie lehrte ein sehr vernünftiger Lehrer.

Auf einmal gab der Lehrer den beiden Lehrlingen eine Aufgabe, um ihre Vernunft und Interesse zu wissen. Die Aufgabe war so, sie sollten eine von zwei Bildern, ein Kopf oder ein Schwert erklären.

Alisher schrieb ein Gasel, in dem die Klugheit und Weisheit erklären wurden, über den Kopf.

Und Husayin verherrlichte das Schwert und sein Macht.

Nachdem der Lehrer die Antworten gelesen hatte, schaute er auf den Himmel und zeigte den Sonne zu Alisher und sagte — „Bravo!“ Dann zeigte die graue Wolke zu Husayin, aber sagte nichts.

Husayin meinte, dass der Lehrer vergas, ihn zu belohnen. Und fragte erstaunlich nach seiner „Auszeichnung“.

Zu dir ist „Schade“ als Auszeichnung vom Himmel geschrieben. —sagte der Lehrer zu dem Prinz.

Alisher verstand die Bedeutung seiner Auszeichnung, und Sein Kopf hat der Himmel erreicht. Aber Prinz Husayin könnte das Geheimnis seiner „Auszeichnung“ nicht verstehen. Im Bild mit einem Kopf und einem Schwert: der Kopf ist das Sinnbild der Klugheit und bedient zur Menschheit. Aber Schwert ist gegen der Klugheit und bringt zur Menschheit viel Leid und Unglück.

ДОНО САВДОГАР

Алишер Навоийнинг ёшлигида отаси ўлиб кетган экан. Отаси ўлгандан сўнг ўз шаҳрида туролмай, Самарқандга бориб, мадрасада ўқибди. Кўп қийинчиликлар билан ўқишни тамомлаб, яна ўз шаҳрига қайтибди. От-уловсиз, пиёда юриб, бир неча кун деганда бир тоққа келибди. Бу жойда бир мўйсафид чўпон билан учрашибди.

Алишер Навоий ўзини кўтариб катта қилган, отасининг чўпонини дарров танибди. Чол ҳам уни таниб:

- Тушумми, ўнгимми? – деб кўришибди. Дарров белбоғини ёзиб нону сут билан меҳмон қилибди.

- Бу қўйлар кимники? – деб сўрабди, Алишер Навоий.

- Болам, бу қўйларнинг ҳаммаси сизники, у ёқдалигингизда отангиздан қолган моллар ҳар кимнинг қўлида қолиб эди. Отангиз ҳаёт вақтида икки юз қўйни сизга атаб менга топширган эди. Бу қўйлар ҳозир болалаб етти юздан ошди. Отангизнинг васиятини ўз ўрнига қўйганим учун хурсандман, бу қўйларни энди сизга топширдим, - дебди.

Алишер Навоий бир неча кун чўпоннинг уйида меҳмон бўлибди. Қўйларида икки юзини ажратиб чолга берибди:

- Ота, сиз ҳам бола-чақали одамсиз, мана бу қўйларни хизмат ҳақингиз учун олинг!

Чўпон жуда хурсанд бўлибди. Шундан сўнг, Алишер Навоий қолган беш юз қўйни бозорга ҳайдабди. Бу қўйлар жуда семиз бўлгани учун атрофини одамлар ўраб олибдилар.

- Қўйингиз неча пул? – деб сўрабди одамлар.

- Мен қўйимни насияга сотаман. Шу шарт биланки, пулини подшо ўлган куни берасизлар. Шартимга кўнган киши биттадан етаклаб кетаверсин! – дебди.

Бозордаги одамлар дарров талашиб, қўйларни биттадан етаклаб олиб кетибдилар. Шу куни айғоқчилар подшога бу хабарни етказибдилар.

- Эй подшоҳи олам, бугун бозорга бир қаландарсифат йигит келиб беш юз қўйини халққа насияга тарқатиб юборди. Пулини подшо ўлган куни берасизлар, деб сизга ўлим тилади, – дебдилар. Шунда подшо ғазабланиб:

- Боринглар, ўшақаландарни менинг ҳузуримга ҳозир қилинглар, - деб буюрибди. Дарров унинг қўлини орқасига боғлаб, подшонинг қошига келтирибдилар. Подшо қараса, ёшлигида бирга ўқиган дўсти Алишер Навоий экан.

- Нима учун шунча қўйини халққа бериб юбордингиз. Менинг ўлимим сизга нега керак бўлиб қолди? – дебди подшо.

- Эй дўстим, мен чакки иш қилганим йўқ. Сизнинг подшо бўлганингизни эшитиб, қўйларни талатиб юбордим. Шундай ҳам бериб юборишим мумкин эди. Бироқ баъзи бир одамлар текин молдан ҳазар қилишади. Шунинг учун қўйнинг пулини подшо ўлган куни берасизлар, деб айтдим. Энди қўйларни олиб кетган одамлар “Ишқилиб, подшоҳимиз ўлмасин. Подшо ўлса, савдогар пулини қистайди”, – деб сизга умр тилаб юришади, – дебди.

Алишер Навоийнинг бу донолигига подшонинг завқи келиб, уни ўзига вазир қилиб тайинлабди[“Эл деса Навоийни” 1991;11].

DER WEISE KAUFMAN

Als sein Vater zu früh starb, war Alischer sehr jung. Nachdem Tod seines Vaters wollte er nicht mehr in seiner Stadt bleiben. Er ging nach Samarkand, um dort zu studieren. Beim Studium stieß junger Alischer auf viele Schwierigkeiten. Mit zu vielen Mühen absolvierte er die Medresse und kehrte nach seiner Stadt zurück. Er hatte kein Fuhrwerk deswegen begab er sich zu Fuß und ging einige Tage. In der Nähe seiner Stadt auf einer Wiese traf er einen viele Schafe weidete alten Hirt.

Er kannte sofort seinen geneigten Erzieher. Er war der offenerzige Hirt seines Vaters. Der alte Hirt kannte auch Alischer und er war voller Freude um

das Treffen mit Alischer. Unverzüglich bedeckte der Greis sein Belbog (ein relativ großer viereckiger Stoff an der Taille zu binden) auf der Weise und bewirtete ihn mit Essen und Trinken.

-Wessen Schafe sind diese?- fragte Alischer viele Schafe auf der Wiese zeigend.

-Mein Kind, diese alle Schafe gehören zu Dir. Dein Vater verließ vor seinem Tod zu mir ein paar Schafe als das Erbe für dich. Bis heutzutage haben sich diese Schafe mehr als fünf Hundert vermehrt.

Und sagte der Hirt, er gebe ihm diese alle Schafe über, und er sei sehr froh darüber, sein Pflicht zu erfüllen.

Alischer überlegte lange über diese viele Schafe, während er einige Tage beim Hirten zu Gast war. Dann teilte er etwa zwei Hundert Schafe dem Hirt für seinen gewissenhaften Dienst ein. Der Alte freute sich vom Alischer sehr.

Die Reste der Schafe brachte Alischer in den Basar zu verkaufen. Nach einigen Minuten war Alischer von den Kunden umlagert, weil seine Schafe sehr dick waren.

„-Was kostet diese Schafe?“ – fragten die Kunden.

„-Ich verleihe meine Schafe, aber unter einer Bedingung, nur an Leute, die dafür das Geld mir nur nach dem Tod des Padischahs bezahlen werden. Ist jemand mit meiner Bedingung einverstanden, darf er von mir einen Schaf entleihen“. – erklärte Alischer.

Im Nu rafften die Leute alle Schafe. Aber sofort brachten die Spione diese Nachricht zum Padischah über.

„-He, heiler Padischah, heute kam ein Derwisch in den Basar und verteilte über fünf Hundert Schafe an Leute. Er sagte, dass sie dafür nach dem Tod des Padischahs bezahlen müssen. Damit wünschte er Ihnen Tod“ – sagten Derwischen.

Der diese Geschichte hörende Padischah war böse und befahl den seinen Beamten, jenen Derwisch zu ihm zu bringen. Unverzüglich brachten sie in

Fesseln schlagenden Mann zu ihm. Als Padischah sah, kannte er seinen Schulfreund Alischer.

Der Padischah war erstaunlich und überraschte: -„Aber das ist mein Freund. Warum vertriebst Du deine Schafe zum Volk kostenlos. Du mochtest damit meinen Tod. Warum?“.

-„O, mein Freund, Du hast doch mich falsch verstanden. Ich mochte nie deinen Tod. Nachdem ich höre, dass Du den Thron bestiegst, ließ ich die Schafe vertreiben. Ich könnte auch aber einfach die Schafe kostenlos vertreiben. Aber viele Leute meiden die kostenlosen Dinge. Deswegen sagte ich zu den Kunden, „Bezahlen sie nur, nach dem Tod des Padischahs!“. Damit wünschen die Leute Sie sehr lange gesund leben. Weil wenn Sie gestorben, sollen die Leute mir bezahlen für die Schafe.“ – sagte Alischer.

Der Padischah erfreute sich an dieser Weisheit von Alischer und ernannte ihn als Vasir.

ҲАДДИНГДАН ОШСАНГ МОЗОРГА БОР!

Мавлоно Алишер Навоий яшаган замонда авом халқ бевош бўлиб, ўғрилар, жоҳилу кўполлар кўп экан. Улар шариат қонунларидан кўрқмас эканлар, Алишер Навоий вазир бўлгандан сўнг жами сайру томошалар мазор бошида ўтказилсин, деган фармони олий чиқарибди. Зеро, бундан мақсад, халойиқ мазор бошига боргач, ўтган ота-она, қавму қариндошларининг қабрларини кўради, атрофларини супуради, тозалайди, обод қилади, гул ва кўчатлар экади. Ана шу юмушларни қилаётганда, инчунун, охири бизларнинг ҳам келар еримиз шу жой бўларкан-да, деб ўйлайди ва шу тариқа инсофга киради. Ушбу фармон Алишер Навоий ўйлагандай мева бера бошлабди. Қабристонларга одамлар боравериб, у ерларни обод қилибди.

Энди гапни бу ёқдан эшитинг. Ҳирот шаҳрида учта қароқчи бор эди. Энг катта ўғрибоши Кали Ҳожи дегани икки йил бурун қазо қилган эди. Эрта “Қизил гул” сайли деган кечаси ўша учала ўғри бир бойнинг ҳовлисини босишни маслаҳат қилибдилар. Улардан бири бундоқ дебди:

- Оғайнилар, фармонга мувофиқ эртанги сайил мазор бошида ўтади. Сайилга борайлик, ишни сўнги кечага қолдирсак ҳам бўлади.

Бу маслаҳат шерикларига маъқул тушибди. Эрталаб учала ўғри оломонга қўшилиб мазорга борибдилар. Эҳ-ҳа, одамлар азондан келиб ҳар бири ўз қавму қариндошларининг қабрларини зиёрат қилиб, супуриб сидириб, гул-кўчатлар экиб юрибдилар. Ҳалиги ўғрилар бир-бирига қараб, тўғри Кали Ҳожининг қабри устига борибдилар. Қарабдиларки, гўр чўкиб, ундан шўра, қамиш ўсиб ётибди. Бир вақтлар бирга нон-туз еганмиз, деб гўрнинг атрофини тозалаб, шўра қамшларини ўриб ташлаб, уёқ-буёғини тузатибдилар, сўнг аввал маслаҳат берган каттароқ ўғри хўрсиниб дебди:

- Эй оғайнилар, мана ўғрилиқ билан ном чиқарган Кали Ҳожининг охир-оқибати, эрта биз билан сиз ҳам ўлармиз-у, бундан беш баттар бўламиз. Одамлар бу лаънатилар молу мулкимизни талаган эдилар, деб гўримизни тепкилаб ўтадилар. Келинг энди ўғирликни ташлаб қолган умримизни ҳалол ишлаб ўтказайлик, шояд бизларнинг гуноҳимизни кечиришса.

Шу бўлибди-ю, ўғрилар ўзларини меҳнатга урибдилар. Ана ўшандан бошлаб халқ орасида “Ҳаддингдан ошсанг мазорга бор”, деган нақл қолган экан[“Эл деса Навоийни” 1991;22].

DEINE KOMPETENZ ÜBERSCHRITTEST, GEH IN DEN FRIEDHOF

Als Mawlono Alischer Nawoiy lebte, gab es viele ungebildete diebische und grobe Leute. Sie fürchteten sich nicht vor muslimischer Gesetzsammlung.

Nachdem Alischer zum Wesir (*Minister orientalischer Staaten*) ernannte, möchte diese schlechte unangenehme Situation beseitigen. Nach seinem Erlass sollen alle Feiern und Veranstaltungen an dem Friedhof stattgefunden werden. Denn, das Ziel, dort im Friedhof sehen den Menschen die Gräber ihrer Gestorbenen Verwandten. Sie putzen und fegen die Grabstätte, pflanzen Blumen

und Bäume, wohlordnen die Umgebung des Friedhofs. Sie denken, dass sie auch am Ende hier erreichen, während sie diese Arbeiten machen. Auf solche Weise haben sie auf dem Gewissen. Alischers Erlass erzielte ein gutes Resultat, wie er dachte. Die Umgebung der Friedhöfe wurde mit Grünanlagen und allen Einrichtungen versehenen Orten.

Jetzt lesen Sie von anderer Seite. Es gab in der Stadt Herat drei Räuber. Der größte Räuber Kali Hodscha war vor zwei Jahre gestorben.

Vor einer Nacht vom Fest „Rote Blume“ entschieden sich diese Räuber einen reichen Mann zu rauben. Aber einer von ihnen sagte;

-„Gebrüder, laut dem Erlass findet am Morgen das Volksfest am Friedhof statt. Wir können die Arbeit zur nächsten Nacht lassen und heute können wir auch ins Fest gehen.“

Dieser Rat wurde von den anderen Genossen angenommen. Am Morgen gingen drei Räuber in den Friedhof mit anderen Menschen zusammen. So, alle kamen hierher früh morgens und jeder pilgerte seine Verwandtengraben, putzte die Grabstätte von dem Unkraut und pflanzte Blumen. Die Räuber waren beeindruckend und besuchten das Grab von Kali Hodscha. Als sie sahen an, das Grab senkte sich und auf ihm wuchsen viele hohen Unkraute, Melde und Schilf. Auch sie putzten dieses Grab von ihren Genossen, weil sie vor Zeiten enge Tischgenossen waren. Dann sagte der früher den Rat gegebene Räuber seufzend;

- Ach, meine Freunde, sehen sie mal, das ist Schluss von mit seinen Diebstählen bekanntem Kali Hodscha. Es fragt sich, wann wir auch sterben werden und werden wir fünfmal schlechtes Ende kriegen. Die Leute sagen, wir stehlen ihre Waren, und vernachlässigten uns, nach wir gestorben sind. Kommen sie, lassen wir den Diebstahl und verlieren den Rest unseres Lebens ehrlich arbeitend, bereuen wir, wahrscheinlich entschuldigt man unsere Sünden. Somit die Räuber fingen ehrlich zu arbeiten. Nach dieser Geschichte erschien solch ein Aphorismus unter Volk, „Deine Kompetenz überschrittest, gehe in den Friedhof“.